**Qishloq,  
o‘rmon va  
baliqchilik  
xo‘jaligi**

2022- yilning yanvar-mart oylarida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 104,1 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar – 104,5 % ni, oʻrmon xoʻjaligi – 101,2 % ni, baliqchilik xoʻjaligi – 101,9 % ni tashkil qildi.


### **Maʼlumot uchun:**

*Dastlabki maʼlumotlarga koʻra, 2022- yilning yanvar – mart oylarida tarmoqning ijobiy oʻsish surʼatiga asosan quyidagi mahsulotlarning 2021- yilning mos davriga nisbatan yuqori oʻsish surʼati qayd etilganligi orqali erishildi.*

✓ Sabzavot	— 114,5 %
✓ Tuxum	— 106,7 %
✓ Goʻsht	— 104,9 %
✓ Sut	— 104,6 %




### **Sirdaryo viloyatining qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi, (% da)**



2022- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga koʻra, qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining 88,3 % i – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar (2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 104,5 %), 9,8 % i – oʻrmon xoʻjaligi (101,2 %) va 1,9 % i – baliqchilik xoʻjaligi (101,9 %) hissasiga toʻgʻri keladi.



## Hududlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so‘m



2022- yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Boyovut (167,9 mlrd. so‘m) Sayxunobod (143,4 mlrd. so‘m) va Sirdaryo (133,8 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha, kam hajmga ega hududlarga Yangiyer (5,0 mlrd. so‘m), Shirin (5,3 mlrd. so‘m) va Guliston (26,3 mlrd. so‘m) shaharlarini keltirib o‘tish mumkin.


### ***Ma‘lumot uchun:***

*Boyovut tumanining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi bo‘yicha viloyatda yetakchi o‘rinni egallashi, mazkur hududning go‘sht, sut, baliq, sabzavotlar kabi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda hududlar orasida yuqori ulushga ega bo‘lganligi bilan izohlanadi.*

*Aksincha Yangiyer shahrining go‘sht, sut, hamda sabzavot kabi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda hududlar orasida kam ulushga ega ekanligini qayd etish lozim.*



## Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati (% da)




Yuqori o'sish sur'atlari Guliston shahar (117,7 %), Sirdaryo (107,3 %), Sayxunobod (104,5 %) va Xovos (103,7 %) tumanlarida kuzatildi. Boshqa hududlar bilan solishtirganda Shirin (101,9 %) va Sardoba (102,4 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi qayd etildi.




## Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot- (xizmat)lari umumiy hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (% da)

**Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi**





Viloyatning qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida eng yuqori va eng kam ulushga ega hududlar:



## Qishloq xoʻjaligi mahsulotlari

*Qishloq xoʻjaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xoʻjaliklarida, dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklarida va qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xoʻjaligida yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.*

2022- yilning yanvar – mart oylarida yetishtirilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlari hajmi 907,3 mlrd. soʻmni yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 104,3 % ni tashkil etdi, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 76,1 mlrd. soʻmni (105,5 %), chorvachilik mahsulotlari – 831,2 mlrd. soʻmni (104,2 %) tashkil qildi.



## Qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi, (% da)



8,4 %

Dehqonchilik mahsulotlari




91,6 %

Chorvachilik mahsulotlari



**Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (% da)**



**Dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda yuqori ulushga ega hududlar**

**Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda yuqori ulushga ega hududlar**

**01 ▶ Guliston t**

**02 ▶ Shirin**

**03 ▶ Sirdaryo**

**Guliston sh ◀ 01**

**Yangiyer sh ◀ 02**

**Oqoltin ◀ 03**



## Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



8,8%

**Fermer  
xo'jaliklari**



87,2%


**Dehqon  
(shaxsiy yordamchi)  
xo'jaliklari**



4,0%

**Qishloq xo'jaligi faoliyatini  
amalga oshiruvchi  
tashkilotlar**

Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 87,2 % i – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 8,8 % i – fermer xo'jaliklariga, 4,0 % i – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



### **Ma'lumot uchun:**


*Asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining ulushi quyidagicha:*

✓ <i>Go'sht (tirik vaznda)</i>	— 93,0 %
✓ <i>Sut</i>	— 90,3 %
✓ <i>Tuxum</i>	— 82,0 %
✓ <i>Sabzavot</i>	— 69,8 %

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.



### Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha xo'jaliklar toifalari kesimida taqsimlanishi, (% da)




2022- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Guliston tumanida (17,5 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Yangiyer shahrida (97,4 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Guliston shahrida (49,6 %) qayd etildi.

Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich Shirin (0,0 %), Yangiyer (1,0 %), Guliston shaharlarida (1,6 %) va dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng kam ulushi Guliston shahrida (48,8 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Sardoba (0,1 %), Oqoltin tumanida (0,4 %) hamda Boyovut (0,8 %) va tumanlarida qayd etildi.




## Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda xo'jalik toifalarining ulushi

### Dehqonchilik mahsulotlari



2022– yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi dehqonchilik mahsulotlarining toifalar bo'yicha ulushi ya'ni fermer xo'jaliklarida (71,7 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida (21,3 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida (7,0 %) ni tashkil etdi.

### Chorvachilik mahsulotlari



**Fermer  
xo'jaliklari**

**Dehqon  
(shaxsiy yordamchi)  
xo'jaliklari**

**Qishloq xo'jaligi  
faoliyatini amalga  
oshiruvchi tashkilotlar**

2022– yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi chorvachilik mahsulotlarining toifalar bo'yicha ulushi ya'ni fermer xo'jaliklarida (3,0 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida (93,3 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida (3,7 %) ni tashkil etdi.

## 2 BO'LIM. DEHQONCHILIK MAHSULOTLARI

2022- yilning yanvar-mart oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 76,1 mlrd.so'mni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 105,5 % ni tashkil etdi. Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 8,4 % ni tashkil qildi.

### Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish, *ming t.*



2022- yilning yanvar-martida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1,4 ming t. sabzavotlar (14,5 % ga ko'p), yetishtirildi.


### Dehqonchilik mahsulotlarining o'sish sur'ati, % da






# Sabzavotlar


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




Sabzavot yetishtirishning eng katta hajmi 1,0 ming t. yoki umumiy yetishtirish hajmidan 69,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida qayd etildi.

Eng kam hajm 0,2 ming t. yoki umumiy yetishtirish hajmidan 12,9 % i fermer xo'jaliklarida kuzatildi.

2022- yilning yanvar-mart oylarida, fermer xo'jaliklarida 102,2 %, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida 102,1 %, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 274,2 % o'sish kuzatildi.



## HUDUDLAR BO‘YICHA SABZAVOTLAR YETISHTIRISH



Hududlar o‘rtasida sabzavot etishtirish tarkibining asosiy qismini Sirdaryo tumani egallamoqda, uning ulushi 33,1 % ga teng bo‘ldi. Shuningdek, yuqori ulush Guliston (26,3 %), Boyovut (11,5 %), Sayxunobod (9,3%), tumanlarida qayd etildi.

Past ko‘rsatkichlar Yangiyer (0,1 %), Guliston (0,1 %) va Shirin (2,5 %) shaharlarida kuzatildi.

Yuqori o‘sish sur‘atlari Sirdaryo (140,3 %), Shirin shahar (115,5 %), Guliston (107,4 %) tumanlarida qayd etildi.








### 3 BO'LIM. CHORVACHILIK MAHSULOTLARI

2022- yilning yanvar-mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 831,2 mlrd. so'mni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 104,2 % ni tashkil qildi. Jami yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 91,6 % ni tashkil etdi.




Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli ko'mak ko'rsatib kelinayotganligi chorva mollari va parrandalari bosh sonining ko'payishiga, ichki iste'mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to'ldirishga imkon yaratdi.

2022- yilning yanvar-martida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 14,6 ming t. go'sht tirik vaznda (2021- yilning yanvar - martiga nisbatan 4,9 % ga ko'p), 54,0 ming t. sut (4,6 % ga ko'p), 35,9 mln. dona tuxum (106,7 % ga) yetishtirilib, 1011,8 t. baliq (0,9 % ga ko'p) ovlandi.




## GO'SHT ( TIRIK VAZDA )


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Fermer xo'jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar


2022- yilning yanvar - mart oylarida go'sht yetishtirish to'g'risidagi ma'lumotlarning xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil natijalariga asosan, go'sht yetishtirishning eng katta hajmi 13,6 ming t. yoki umumiy yetishtirish hajmidan 93,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida qayd etilganligini ta'kidlash lozim.

Ko'rsatib o'tilgan davrlarda, go'sht yetishtirishning eng kam hajmi 0,3 ming t. yoki umumiy yetishtirish hajmidan 2,2 % i fermer xo'jaliklarida kuzatildi.

2021- yilning mos davri bilan solishtirganda, 2022 yil yanvar - martida fermer xo'jaliklarida 156,6 %, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida 101,6 %, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 201,4 % o'sish kuzatildi.



**HUDUDLAR BO‘YICHA  
GO‘SHT (TIRIK VAZND)  
YETISHTIRISH**




Yuqori ulushga ega hududlar	Past ulushga ega hududlar
Boyovut tumani <b>17,2 %</b>	Yangiyer shahri <b>0,6 %</b>
Sayxunobod tumani <b>15,2 %</b>	Shirin shahri <b>0,6 %</b>
Sardoba tumani <b>14,8 %</b>	Guliston shahri <b>3,3 %</b>
Sirdaryo tumani <b>12,0 %</b>	Xovos tumani <b>7,4 %</b>






## Sut


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Fermer xo'jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2022- yilning yanvar-mart oylari yakunlari bo'yicha xo'jalik toifalari orasida sut yetishtirishning eng katta hajmi 48,8 ming t. yoki umumiy yetishtirish hajmidan 90,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida qayd etildi.

Eng kam hajm 2,5 ming t. yoki umumiy yetishtirish hajmidan 4,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda kuzatildi.


2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, joriy yilda fermer xo'jaliklarida 62,0 %, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida 1,0 %, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda esa 50,6 % o'sish kuzatildi.



## HUDUDLAR BO'YICHA SUT YETISHTIRISH

Hajmi, t.

Viloyatning umumiy hajmiga nisbatan ulushi, % da




Yuqori ulushga ega hududlar	Past ulushga ega hududlar
Boyovut tumani <b>17,2 %</b>	Shirin shahri <b>0,2 %</b>
Sirdaryo tumani <b>12,9 %</b>	Yangiyer shahri <b>0,2 %</b>
Guliston tumani <b>12,9 %</b>	Guliston shahri <b>3,1 %</b>
Sayxunobod tumani <b>12,3 %</b>	Sardoba tumani <b>10,0 %</b>






# Tuxum


Hajmi, mln. dona



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




Boshqa toifadagi xo'jaliklarga nisbatan taqqoslanganda, 2022- yilning yanvar-mart oylarida tuxum yetishtirishning eng katta hajmi 29,4 mln. dona yoki umumiy yetishtirish hajmidan 82,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida qayd etildi.

Yetishtirishning eng kam hajmi 1,5 mln. dona yoki umumiy yetishtirish hajmidan 4,1 % i fermer xo'jaliklarida kuzatildi.

2021- yilning yanvar-martiga nisbatan joriy yilda fermer xo'jaliklarida 370,3 %, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida 101,6 %, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda esa 116,3 % o'sish kuzatildi.



## HUDUDLAR BO'YICHA TUXUM YETISHTIRISH




Yuqori ulushga ega hududlar	Past ulushga ega hududlar
Sardoba tumani <b>23,0 %</b>	Yangiyer shahri <b>0,4 %</b>
Mirzaobod tumani <b>14,0 %</b>	Shirin shahri <b>0,5 %</b>
Guliston tumani <b>12,1 %</b>	Oqoltin tumani <b>7,0 %</b>
Guliston shahri <b>9,8 %</b>	Sirdaryo tumani <b>7,1 %</b>






# Baliq


Hajmi, t.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Fermer xo'jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Baliq ovlash ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilish jarayonida, 2022- yilning yanvar - mart oylari natijalari bo'yicha ovlangan baliqlar hajmining asosiy qismi 863,2 t. yoki umumiy ovlangan hajmidan 85,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda qayd etildi.


Eng kam hajmi 42,2 t. yoki umumiy ovlangan baliq hajmidan 4,2 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida kuzatildi.

2021- yilning yanvar-martga nisbatan joriy yilda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida 0,5 %, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 21,4 % o'sish kuzatildi.





## HUDUDLAR BO'YICHA OVLANGAN BALIQLAR



Yuqori ulushga ega hududlar	Past ulushga ega hududlar
Mirzaobod tumani <b>75,2 %</b>	Shirin shahar <b>0,0 %</b>
Boyovut tumani <b>7,9 %</b>	Yangiyer shahri <b>0,0 %</b>
Guliston tumani <b>5,5 %</b>	Guliston shahar <b>0,2 %</b>
Xovos tumani <b>4,7 %</b>	Sardoba tumani <b>1,2 %</b>





#### 4 BO'LIM. CHORVA MOLLARI VA PARRANDALAR BOSH SONI, MING BOSH




2022- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarning xo'jalik toifalari bo'yicha tahlili, yirik shoxli qoramollarning 6,3 % i fermer xo'jaliklari, 90,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari, 2,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish lozim. Mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 11,9 % i fermer xo'jaliklari, 85,7 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari, 2,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga, otlarning umumiy sonidan 16,9 % i fermer xo'jaliklariga, 81,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga, parrandalar umumiy sonidan 3,8 % i fermer xo'jaliklariga, 49,2 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 47,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.




## Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Jami bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Fermer xo'jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2022- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:

- yirik shoxli qoramollarning umumiy soni 440,2 ming boshga etdi.

- yirik shoxli qoramollar bosh soni 2021- yil 1- aprelga nisbatan 17,4 ming boshga (4,1 %) ko'paydi.

- yirik shoxli qoramollar bosh sonining 90,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri keldi.




## Yirik shoxli qoramollar, (ming bosh)


Yirik shoxli qoramollar umumiy bosh sonining eng katta ulushi Boyovut tumaniga (16,5 %) to'g'ri keladi. Shuningdek, yuqori ulush Sayxunobod (15,7 %) Sirdaryo (11,8 %), tumanlarida qayd etildi.

Shu bilan birga, yirik shoxli qoramollar umumiy bosh sonidagi eng past ulush Shirin (0,9 %) va Yangiyer (1,2 %) shaharlarida kuzatildi.

Boshqa hududlar bilan taqqoslanganda, 2021 yil yanvar-martga nisbatan eng yuqori o'sish sur'atlari Mirzaobod (106,4 %), Sardoba (106,0 %) tumanlarida qayd etildi.




## Viloyat bo'yicha yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soniga nisbatan hududlarning ulushi






## Sigirlar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Jami bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Fermer xo'jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2022- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:

- sigirlarning umumiy soni 147,2 ming boshga etdi.
- sigirlar bosh soni 2021- yil 1- aprelga nisbatan 5,7 ming boshga (4,0 %) ko'paydi.
- sigirlar bosh sonining 90,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri keldi.



## Sigirlar, (ming bosh)



Hududlar o'rtasida sigirlar umumiy bosh sonining eng ko'p qismi Boyovut tumaniga (16,8 %) to'g'ri keldi.


Bundan tashqari, yuqori ulush Sayxunobod (16,2 %), Xovos (12,4 %) va Sirdaryo (11,7 %), tumanlarida qayd etildi.

Sigirlar umumiy bosh sonining eng kam ulushi Yangiyer (0,7 %) va Shirin (1,1 %) shaharlarida kuzatildi.

Boshqa hududlar bilan taqqoslanganda, eng yuqori o'sish sur'atlari Mirzaobod (108,7 %), Sardoba (106,5 %), va Xovos (103,8 %) tumanlarida qayd etildi.




## Viloyat bo'yicha sigirlarning umumiy bosh soniga nisbatan hududlarning ulushi






## Qo'y va echkilar


Soni, ming bosh



O'lish sur'ati



Jami bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Fermer xo'jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2022- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:

- qo'y va echkilar umumiy soni 303,6 ming boshga etdi.
- qo'y va echkilar bosh soni 2021- yil 1- aprelga nisbatan 13,1 ming boshga (4,5 %) ko'paydi.
- qo'y va echkilar bosh sonining 85,7 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri keldi.




## Qo'y va echkilar, (ming bosh)

Hududlar kesimida qo'y va echkilar umumiy bosh sonining eng katta ulushi Boyovut tumaniga (19,1 %) to'g'ri keladi.


Shu bilan bir qatorda, yuqori ulush Xovos (16,6 %), Mirzaobod (11,3 %), va Sardoba (10,6 %) tumanlarida qayd etildi.

Qo'y va echkilar umumiy bosh sonining eng kam ulushi Shirin (1,2 %) va Yangiyer (2,3 %) shaharlarida kuzatildi.

Boshqa hududlar bilan taqqoslanganda, eng yuqori o'sish sur'atlari Guliston (111,5 %), Oqoltin (107,4 %) va Mirzaobod (106,8 %) tumanlarida qayd etildi.



## Viloyat bo'yicha qo'y va echkilar umumiy bosh soniga nisbatan hududlarning ulushi









# Otlar


**Soni, bosh**



**O'sish sur'ati**



**Jami bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



**Fermer xo'jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**

**Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**

2022- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:


- otlarning umumiy soni 15 412 boshga etdi.

- otlar bosh soni 2021- yil 1- aprelga nisbatan 457 boshga (3,1 %) ko'paydi.

- otlar bosh sonining 81,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri keldi.



## Otlar, (bosh)




Hududlar o'rtasida otlar umumiy bosh sonining eng katta ulushi Sayxunobod (23,4 %) to'g'ri keladi. Shu kabi, yuqori ulush Boyovut (17,7 %), Guliston (14,9 %) va Sirdaryo (13,0 %) tumanlarida qayd etildi.

Otlar umumiy sonining eng kam ulushi Shirin (0,5 %) va Yangiyer (0,8 %) shaharlarida kuzatildi.

Boshqa hududlar bilan taqqoslanganda, eng yuqori o'sish sur'atlari Guliston (104,7 %), Boyovut (104,4 %), Mirzaobod (103,3 %) tumanlarida qayd etildi.




## Viloyat bo'yicha otlarning umumiy bosh soniga nisbatan hududlarning ulushi






# Parrandalar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Jami bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Fermer xo'jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2022- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:

- parrandalarning umumiy soni 2988,0 ming boshga etdi.
- parrandalar bosh soni 2021- yil 1- aprelga nisbatan 763,0 ming boshga (34,3 %) ko'paydi.
- parrandalar bosh sonining 49,2 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri keldi.




## Parrandalar, (ming bosh)


Hududlar bo'yicha parrandalar umumiy bosh sonining eng ko'p qismi Guliston shahrida (22,7 %) to'g'ri keldi, shuningdek, Mirzaobod (17,8 %), Sardoba (15,9 %) va Sirdaryo (13,0 %) yuqori ko'rsatkichlar qayd etildi.

Hududlar bo'yicha parrandalar umumiy bosh sonining eng kam qismi Shirin (0,5 %) va Yangiyer (0,9 %) shaharlariga to'g'ri keldi.

Boshqa hududlar bilan taqqoslanganda, eng yuqori o'sish sur'atlari Mirzaobod (218,1 %), Guliston shahri (147,8 %), Sirdaryo (147,3 %) tumanlarida qayd etildi.



## Viloyat bo'yicha parrandalarning umumiy bosh soniga nisbatan hududlarning ulushi



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Qishloq xo'jaligi mahsulotlari** – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

**Dehqonchilik mahsuloti** – hisobot davrida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi ekinlarining yalpi hosili va boshqa dehqonchilik mahsulotlarining qiymatini hamda ko'p yillik yosh ko'chatlarni o'stirish qiymati va yil boshidan yil oxirigacha tugallanmagan yetishtirish qiymatlarining o'zgarishi yig'indisidir.

**Chorvachilik mahsuloti** – mollar, parrandalar va boshqa chorva mollarini o'stirish, sut, tuxum, jun, asal va boshqa chorvachilik mahsulotlari yetishtirish qiymatlarini o'z ichiga oladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi indekslarini hisoblashda ularning solishtirma narxlardagi qiymatidan foydalaniladi.

**Ovchilik** - ovchilik va yovvoyi hayvonlarni tutish, bu sohalarda xizmat ko'rsatish shuningdek, parvarishxona va fermalarda hayvonlarni saqlash, ko'paytirish va davolash harajatlari hisobga olinadi.

**O'rmon xo'jaligi** – o'rmon va o'rmon resurslaridan foydalanish kabi faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. O'rmon xo'jaliklari tomonidan olib borilayotgan ishlar o'rmonlarning holatini yaxshilash, ularni uzluksiz yangilash, zararkunandalar, kasalliklar va noqonuniy kesishdan himoya qilish, sanitariya va yong'inga qarshi dasturlarni ishlab chiqarish kiradi. O'rmon xo'jaligi mahsulotlariga terak, eman, qayin, sosna, qoraqarag'ay va boshqa shu kabi daraxtlar ko'chatlarini olish va yetishtirish ham hisobga olinadi. Shuningdek, yovvoyi holda o'suvchi qo'ziqorin va tryufellar, rezavor mevalar, yong'oqlar va boshqalarni terib olingani ushbu tarmoqda hisobga olinadi.

**Baliq xo'jaligi** – ovlangan baliq, suv bioresurslari va akvakultura sohasining mahsuloti va ko'rsatilgan xizmatlar hajmini shuningdek, ushbu sohani rivojlantirish, zaxiralarni ko'paytirish va yaxshilashni o'z ichiga oladi.

**Qishloq xo'jaligi ekinlarining yig'ilgan yalpi hosili** qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar, fermer va dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida asosiy va takroriy, bog'larning qator oralaridagi qishloq xo'jaligi ekinlaridan yig'ib olingan mahsulotlar hajmini o'z ichiga oladi.

**Fermer xo'jaliklari** - ijaraga berilgan er uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonun hujjatlarida ta'qiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik sub'ektidir.

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari** – oilaviy mayda tovar xo'jaligi bo'lib, oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig'iga berilgan er uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtiradi va realizatsiya qiladi.

Dehqon xo‘jaligidagi faoliyat tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi hamda dehqon xo‘jaligi a‘zolarining istagiga ko‘ra yuridik shaxs tashkil etgan holda va yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshirilishi mumkin.

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar** – qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo‘jalik yuritish jarayonida erga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo‘jalik yurituvchi sub’ekt hisoblanadi.

**Mollar bosh soni** - xo‘jalik toifalari bo‘yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o‘z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo‘y va echkilar, cho‘chqalar va h.k.)

**Go‘sht yetishtirish** - so‘yish uchun sotilgan hamda o‘z xo‘jaligida so‘yilgan barcha turdagi qishloq xo‘jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o‘z ichiga oladi.

**Sut yetishtirish** - yosh mollarga ichirish uchun sog‘ib olingan sut va og‘iz sutini qo‘shgan holda, haqiqatda sog‘ib olingan sigir, echki, qo‘y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi yetishtirishga kiritilmaydi.

**Tuxum yetishtirish** - barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo‘ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o‘z ichiga oladi.


**Jun yetishtirish** - xo‘jalikning ichki ehtiyojlariga sarflangani hamda junni saqlash va tashish jarayonida yo‘qotilganini qo‘shgan holda, qo‘y, echki, tuyalardan haqiqatda qirqib olingan natura vazndagi (qirqib olingandan keyingi vaznda) barcha junlarni o‘z ichiga oladi, bunga tullash juni, echki tiviti hamda takroriy qirqib olingan junlar ham qo‘shiladi.

## IV. INVESTITSIYA VA QURILISH ISHLARI

2022-yilning yanvar-mart oylarida Sirdaryo viloyatida iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 2989,8 mlrd. so‘m, (dollar ekvivalentida 272,7 mln. AQSH doll.) asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 227,4 % ni tashkil qildi.

*Asosiy kapitalga investitsiyalar yillar bo‘yicha dinamikasini kuzatadigan bo‘lsak, 2005 yilda – 0,05 trln. so‘m yoki 6,9 % o‘shishni, 2010 yilda – 0,4 trln. so‘m yoki 66,2 % o‘shishni, 2015 yilda – 1,0 trln. so‘m yoki 2,5 % o‘shishni tashkil etgan.*


### Asosiy kapitalga investitsiyalarning o‘shish sur‘atlari, % da



2022-yilning yanvar-mart oylarida jami asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning katta qismi viloyatning 3 (uch) ta hududida jumladan, Boyovut tumanida (jami investitsiyalardagi ulushi 45,6%), Xovos tumanida (jami investitsiyalardagi ulushi 18,6 %), Sirdaryo (12,8 %) tumanida qayd etildi.

Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning yuqori o‘shish sur‘atlari Boyovut tumanida (o‘tgan yilga nisbatan o‘shish sur‘ati 548,3 % asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 1362,3 mlrd. so‘m), Xovos tumanida (2889,0 %, 555,2 mlrd. so‘m), hamda Sirdaryo tumanida (164,0 %, 383,7 mlrd. so‘m) kuzatildi.

**Aholi jon boshiga kiritilgan investitsiyalar hajmi va o'sish sur'atlari**  
(2022-yil yanvar-mart oylarida)



2022-yilning yanvar-martda aholi jon boshiga hisoblangan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar Boyovut (10143,8 ming. so'm), Xovos (5596,8 ming so'm), Sirdaryo (2893,6 ming so'm) tumanlarida, Shirin (3546,3 ming so'm) va Guliston (2243,3 ming so'm) shaharlarida qayd etildi.

**2022-yilning yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha taqsimlanishi**

	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>	<i>Jamiga nisbatan, % da</i>
<b>Asosiy kapitalga investitsiyalar</b>	<b>2989,8</b>	<b>227,4</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
<b>Markazlashgan investitsiyalar</b>	<b>162,1</b>	<b>44,0</b>	<b>5,4</b>
Budjet mablag'lari	54,5	130,8	1,8
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi kreditlar	83,5	28,0	2,8
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	-	-	-
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	24,1	-	0,8



	<i>Mrd. so‘m</i>	<i>O‘shish sur‘ati, % da</i>	<i>Jamiga nisbatan, % da</i>
<b>Markazlashmagan investitsiyalar</b>	<b>2827,7</b>	<b>298,7</b>	<b>94,6</b>
korxonalar mablag‘lari	296,0	102,0	9,9
aholi mablag‘lari	27,3	41,7	0,9
to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar	2339,8	907,9	78,3
tijorat banklari kreditlari va boshqa qarzi mablag‘lari	164,6	49,4	5,5


**Markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarning jami asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmidagi ulushi, % da**



Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan kiritilgan investitsiyalar hajmi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 44,0 % ni tashkil etib, 162,1 mlrd. so‘mga yetdi. Jami investitsiyalar hajmida esa markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan kiritilgan investitsiyalar hajmining ulushi 5,4 % ni tashkil qildi.


Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 298,7 % ni tashkil etib, 2827,7 mlrd. so‘mga yetdi. Jami investitsiyalar hajmida esa markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan kiritilgan investitsiyalar hajmining ulushi 94,6 % ni tashkil qildi.

**Asosiy kapitalga investitsiyalarning markazlashgan moliyalashtirish manbalari ulushi %da**



2022-yilning yanvar–mart oylarida o‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar ulushi 19,9 punktga kamaygan.

**Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning markazlashmagan moliyalashtirish manbalari ulushi % da**



Markazlashmagan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari asosan to‘g‘ridan to‘g‘ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar (jami investitsiyalar hajmiga nisbatan 78,3 %) hamda korxonalar va aholi mablag‘lari (14,9 %) hisobiga to‘g‘ri keldi.

**To‘g‘ridan-to‘g‘ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hisobiga quyidagi korxonalarda yirik investitsion loyihalar amalga oshirilmoqda:**

Boyovut tumanida «AKWA POWER SIRDARYO» MCHJ XK tomonidan 2022-yil yanvar-mart oylarida 115,4 mln. AQSH dollar miqdorida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya o‘zlashtirilib asosiy kapitalga yo‘naltirilgan.

Sirdaryo tumanida «SIRDARYO MEGA LYUKS» MCHJ QK tomonidan 2022-yil yanvar-mart oylarida 21,5 mln. AQSH dollar miqdorida kafolatlanmagan xorijiy kreditlar asosiy kapitalga yo‘naltirilgan.

Sardoba va Oqoltin tumanida «Indorama Agro» MCHJ QK tomonidan 2022-yil yanvar-mart oylari davomida 2,0 mln. AQSH dollari miqdorida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya o‘zlashtirilib asosiy kapitalga yo‘naltirilgan.

**Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning  
moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi**

	Jami investitsiyalar, mlrd. so'm	shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo'yicha:						
		Respublika budjeti	Suv taminoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jang'armasi	Korxonalar va aholi mablag'i	Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	Xorijiy investitsiya va kreditlar	Tiklanish va taraqqiyot jang'armasi	Bolalar sportini rivojlantirish jang'armasi
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>2989,8</b>	<b>54,5</b>	<b>24,1</b>	<b>323,3</b>	<b>164,6</b>	<b>2423,3</b>	-	-
shaharlar								
Guliston	211,1	30,0	2,1	47,7	17,4	113,9	-	-
Shirin	67,8	0,1	-	43,7	9,7	14,3	-	-
Yangiyer	76,6	0,7	3,7	32,2	18,2	21,8	-	-
tumanlar								
Boyovut	1362,3	4,6	5,2	6,6	3,2	1342,7	-	-
Guliston	52,9	0,0	0,3	20,9	3,6	28,1	-	-
Mirzaobod	137,2	9,2	4,0	26,0	44,4	53,6	-	-
Oqoltin	39,9	1,4	1,0	11,0	15,1	11,4	-	-
Sardoba	46,2	2,5	3,0	3,7	5,9	31,1	-	-
Sayxunobod	56,9	2,6	4,4	21,0	11,6	17,3	-	-
Sirdaryo	383,7	2,8	0,2	86,2	30,9	263,6	-	-
Xovos	555,2	0,6	0,2	24,3	4,6	525,5	-	-

**Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning mulkchilik  
shakllari bo'yicha texnologik tarkibi  
(2022-yil yanvar-mart)**

	Jami	Davlat	Nodavlat
<b>Jami, mlrd. so'm</b>	<b>2989,8</b>	<b>106,5</b>	<b>2883,3</b>
<i>shu jumladan jamiga nisbatan, % da:</i>			
qurilish – montaj ishlari	16,1	80,0	13,7
mashina, uskuna, inventar	56,7	16,2	58,2
boshqa xarajatlar	27,2	3,8	28,1


Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida: viloyat bo'yicha qurilish – montaj ishlarining ulushi – 16,1 % ni, mashina, uskuna, inventar sotib olishga xarajatlar – 56,7 % ni hamda boshqa xarajatlar ulushi – 27,2 % ni tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga  
o'zlashtirilgan investitsiyalar**


	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan, % da	
		2022-yil yanvar-mart	2021-yil yanvar- mart
<b>Asosiy kapitalga investitsiyalar - jami</b>	<b>2989,8</b>	<b>100</b>	<b>100</b>
<i>shu jumladan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha:</i>			
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	125,3	4,2	14,8
Tog' - kon sanoati	14,0	0,5	1,7
Ishlab chiqarish sanoati	787,9	26,4	36,8
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	1792,2	59,9	25,1
Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish	100,5	3,4	5,8
Qurilish	33,1	1,1	3,9
Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash	32,5	1,1	1,8
Tashish va saqlash	9,6	0,3	1,2
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1,6	0,1	0,4
Axborot va aloqa	3,0	0,1	0,6
Moliya va sug'urta faoliyati	4,4	0,1	0,4
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	20,8	0,7	1,1
Ta'lim	3,1	0,1	0,9
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	18,4	0,6	0,8
Sa'nat, ko'ngil ochish va dam olish sohasi	0,5	0,0	0,0
Jami faoliyat turlaridan tashqari: turar joy qurilishiga investitsiyalar	30,9	1,0	0,8
Boshqa faoliyat turlari	12,0	0,4	3,9

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zlashtirilishi: elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash faoliyat turida 1792,2 mlrd. so'm, (59,9 %), ishlab chiqarish sanoatida 787,9 mlrd. so'm (jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 26,4 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 125,3 mlrd. so'm (4,2 %), suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish 100,5 mlrd. so'm (3,4 %), qurilish faoliyati turida 33,1 mlrd. so'm (1,1 %), jami faoliyat turlaridan tashqari turar joy qurilishida 30,9 mlrd. so'm (1,0 %), ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash 32,5 mlrd. so'm (1,1%), professional, ilmiy va texnik faoliyat turida 20,8 mlrd. so'm (0,7 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish 18,4 mlrd. so'm (0,6 %), tog' - kon sanoati 14,0 mlrd. so'm (0,5 %) investitsiyalar o'zlashtirildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibi, % da**  
(2022- yil yanvar-mart)



**Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi, % da**



## Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

2022-yilning yanvar-martda 2 423,3 mlrd. so‘m yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 435,7 % ga asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar o‘zlashtirildi.


Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalardagi ulushi 81,1% ni tashkil etdi.

Xorijiy investitsiya va kreditlarning eng katta ulushi Boyovut tumanida (55,4 %), Xovos tumanida (21,7 %) va Sirdaryo tumanida (10,9 %) kuzatildi.

### Xorijiy investitsiyalar va kreditlarni o‘zlashtirish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlarni qo‘shgan holda

	<i>Xorijiy investitsiyalar va kreditlar o‘zlashtirildi, mlrd. so‘m</i>		<i>Xorijiy investitsiyalar va kreditlar, % da</i>	
	<i>jami</i>	<i>shu jumladan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar</i>	<i>jamiga</i>	<i>shu jumladan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar</i>
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>2423,3</b>	<b>2339,8</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shaharlar				
Guliston	114,0	30,9	4,7	1,3
Shirin	14,2	14,3	0,6	0,6
Yangiyer	21,8	21,8	0,9	0,9
tumanlar				
Boyovut	1342,7	1 342,2	55,4	57,4
Guliston	28,1	28,1	1,1	1,2
Mirzaobod	53,6	53,6	2,2	2,3
Oqoltin	11,4	11,4	0,5	0,5
Sardoba	31,1	31,1	1,3	1,3
Sayxunobod	17,3	17,3	0,7	0,7
Sirdaryo	263,6	263,6	10,9	11,3
Xovos	525,5	525,5	21,7	22,5


### Xorijiy investitsiyalar va kreditlarni o'zlashtirish (mln. AQSH doll.)



O'zlashtirilgan jami xorijiy investitsiya va kreditlarning dollar ekvivalentidagi qiymati 221,2 mln. AQSH dollarini tashkil etib, undan 213,8 mln. AQSH dollari to'g'ridan-to'g'ri hamda boshqa xorijiy investitsiya va kreditlarni yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 96,7 % tashkil etdi.

To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlarning o'zlashtirilgan hajmi 2022-yilning yanvar–martida 2339,8 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 907,9 % ga erishildi.

### Ayrim iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tarmog'ining jamiga nisbatan ulushi 71,9 % ni tashkil etdi, shuningdek, qayta ishlash sanoatida xorijiy investitsiyalarning umumiy hajmida tutgan ulushi 23,5 % ni tashkil etdi.

### Ijtimoiy soha obyektlarining qurilishi

Jami asosiy kapitalga investitsiyalarda turar joy qurilishiga o'zlashtirilgan investitsiyalar 30,9 mlrd. so'mni yoki jami investitsiyalar hajmida 1,0 % ni tashkil etdi.

### Yangi qurilish va rekonstruksiya hisobiga turar joylar va ijtimoiy obyektlarni ishga tushirish (2022-yil yanvar–mart)

	<i>Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan:</i>			
	<i>Ishga tushirildi</i>		<i>2021-yil mos davriga nisbatan, % da</i>	
	<i>jami</i>	<i>Jumladan qishloq joylarda</i>	<i>jami</i>	<i>Jumladan qishloq joylarda</i>
Turar joylar umumiy maydoni, <i>ming kv.m.</i>	<b>16,8</b>	<b>10,3</b>	<b>48,5</b>	<b>44,6</b>
<i>ulardan:</i>				
yakka tartibdagi turar joylar	16,8	10,3	55,9	55,7
namunaviy loyihalar asosida shahar va qishloqlarda qurilgan yakka tartibdagi turar joylar	-	-	-	-
Kasalxonalar, <i>yotoq</i>	-	-	-	-
Poliklinikalar (QVP larni qo'shgan holda), <i>qatnov</i>	-	-	-	-
Umumta'lim va ixtisoslashtirilgan maktablar, <i>o'quvchi o'rni</i>	-	-	-	-
Umumta'lim va ixtisoslashtirilgan maktablarni kapital tamirlash, <i>birlik</i>	-	-	-	-
Suv tarmog'i, <i>km</i>	-	-	-	-
Gaz tarmog'i, <i>km</i>	-	-	-	-

2022-yilning yanvar–mart oylarida umumiy maydoni 16,8 ming kv.m (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 48,5 %) bo'lgan 90 ta turar joylar, jumladan 10,3 ming kv.m. (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 44,6 %) bo'lgan 60 ta turar joylar qishloq joylarda ishga tushirildi.



**Ishga tushirilgan turar joylar  
(2022-yil yanvar–mart oylarida)**


	<i>Ishga tushirildi, jami</i>		<i>ulardan: yakka tartibdagi turar joylar</i>	
	<i>ming kv.m</i>	<i>2021-yil yanvar-martga nisbatan, % da</i>	<i>ming kv.m</i>	<i>2021-yil yanvar-martga nisbatan, % da</i>
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>16,8</b>	<b>48,5</b>	<b>16,8</b>	<b>55,9</b>
<i>shaharlar</i>				
Guliston	0,5	9,3	0,5	9,3
Shirin	0,7	186,3	0,7	186,3
Yangiyer	0,9	66,1	0,9	66,1
<i>tumanlar</i>				
Boyovut	2,5	82,0	2,5	127,1
Guliston	0,8	12,6	0,8	29,7
Mirzaobod	1,8	79,0	1,8	79,0
Oqoltin	0,1	7,7	0,1	7,7
Sardoba	1,5	92,1	1,5	92,1
Sayxunobod	1,2	239,2	1,2	239,2
Sirdaryo	6,5	50,8	6,5	50,8
Xovos	0,3	336,0	0,3	336,0

Joriy davrda yakka tartibda qurilgan turar joylar umumiy maydoni 16,8 ming kv.m.ni tashkil etib, o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 55,9 % ni tashkil etdi.

**Qurilish ishlari**

2022-yilning yanvar–mart oylarida viloyatda 528,7 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarildi yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 84,0 % ni tashkil etdi.

**Hududlar kesimida qurilish ishlari hajmining  
o‘shish sur‘atlari,% da**




Qurilish ishlari bo‘yicha o‘tgan yilga nisbatan eng yuqori bo‘lgan o‘shish sur‘atlari Guliston tumanida kuzatilib 105,2 % ni tashkil qildi.

**Hududlar kesimida qurilish ishlari**

	Jami, mlrd.so‘m	shu jumladan mulkchilik shakllari bo‘yicha, jami hajmga nisbatan, % da	
		davlat	nodavlat
<b>Viloyatbo‘yicha:</b>	<b>528,7</b>	<b>5,0</b>	<b>95,0</b>
<i>shaharlar</i>			
Guliston	196,1	7,5	92,5
Shirin	30,7	3,3	96,7
Yangiyyer	29,5	1,7	98,3
<i>tumanlar</i>			
Boyovut	21,8	2,7	97,3
Guliston	64,8	3,1	96,9
Mirzaobod	75,5	4,3	95,7
Oqoltin	13,2	3,9	96,1
Sardoba	9,8	0,7	99,3
Sayxunobod	11,9	3,2	96,8
Sirdaryo	47,2	4,8	95,2
Xovos	28,3	3,4	96,6

Viloyat bo‘yicha jami qurilish ishlarida nodavlat sektorining ulushi 95,0 % ni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 13,8 punktga ko‘paygani kuzatildi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm



Jami qurilish ishlaridan 60,6 % ini yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va korxonalarni texnik qayta qurollantirish ishlariga to'g'ri keladi, shuningdek, 39,4 % ini kapital, joriy ta'mirlash va boshqa pudrat ishlari tashkil etdi.

Hisobot davrida bino va inshootlar qurilishi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi 369,5 mlrd. so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,0 %) ni, fuqarolik qurilish obyektlari bo'yicha qurilish hajmi 125,3 mlrd. so'm (55,4 %) ni, ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari bo'yicha qurilish ishlari hajmi 33,9 mlrd. so'm (77,5 %) ni tashkil qildi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm

	Qurilish ishlari, xizmatlar jami	shu jumladan iqtisodiy faoliyat turlari:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik qurilishi obyektlari	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
<b>Viloyat bo'yicha:</b>	<b>528,7</b>	<b>369,5</b>	<b>125,3</b>	<b>33,9</b>
<i>shaharlar</i>				
Guliston	196,1	130,1	55,2	10,8
Shirin	30,7	23,4	5,6	1,7
Yangiyer	29,5	23,6	2,6	3,3
<i>tumanlar</i>				
Boyovut	21,8	16,2	4,3	1,3
Guliston	64,8	43,3	19,3	2,2
Mirzaobod	75,5	49,8	19,9	5,8
Oqoltin	13,1	10,2	2,3	0,6
Sardoba	9,8	7,3	1,5	1,0
Sayxunobod	11,9	9,3	1,6	1,0
Sirdaryo	47,2	35,5	7,4	4,3
Xovos	28,3	20,8	5,6	1,9


## V. XIZMATLAR


### 1 BO'LIM. XIZMATLAR SOHASI RIVOJLANISHINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

Iqtisodiyotda xizmatlar sohasi o'sishining asosiy omillarini ilmiy bilimlar, nomoddiy shakldagi to'plamlar, axborot texnologiyalari va tadbirkorlik faoliyati integratsiyasi kabilar tashkil etadi.

Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki ko'rsatilgan xizmatlardir. Xizmatlar nafaqat korxonalariga, balki jismoniy shaxslar - yakuniy iste'molchilarga ham ko'rsatilishi mumkin.

#### 2022- yil yanvar-mart oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari





### Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1137,2 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 185,6 mlrd. so'mga oshdi. Taqqoslama ekvivalentda, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 113,4 % ni tashkil etdi.



## 2 BO'LIM. IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA ISHLAB CHIQRILGAN XIZMATLAR

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bozor munosabatlari, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning rivojlanishi sharoitida xizmatlar sohasida sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda.
















Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarni ishlab chiqarish iste'molchilarning daromad darajasi, didi va xohish-istaklariga qarab differensiyalanadi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarini ishlab chiqarish (2022- yil yanvar-mart oylarida)

	<i>Mlrd.so'm</i>	<i>2021- yil yanvar- martga nisbatan, % da</i>	<i>2021-yilda 2020- yilga nisbatan, % da</i>
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>1137,2</b>	<b>113,4</b>	<b>112,0</b>
<i>shu jumladan asosiy turlari bo'yicha:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	67,2	119,7	118,5
moliyaviy xizmatlar	372,2	128,6	127,4
transport xizmatlari	154,0	106,9	101,5
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	145,7	106,1	101,1
yashash va ovqatlanish xizmatlari	26,0	103,2	102,1
savdo xizmatlari	307,1	105,3	101,7
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	27,9	107,5	103,1
ta'lim sohasidagi xizmatlar	42,4	98,3	109,8
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	21,6	110,6	102,0
ijara xizmatlari	24,6	76,6	186,4
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	26,8	108,2	101,4
shaxsiy xizmatlar	22,7	109,1	99,4
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	10,5	125,0	107,1
boshqa xizmatlar	34,2	133,3	104,1


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni moliyaviy xizmatlar egallaydi. Shunday qilib, 2022- yilning yanvar- mart oylarida ularning ulushi 32,7 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar savdo xizmatlari (27,0 %), transport xizmatlari (13,5 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (5,9 %) qayd etildi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Eng yuqori ulush		Eng past ulush			
	Moliyaviy xizmatlar	32,7 %		Kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari	2,4 %
		30,4 %			2,4 %
	Savdo xizmatlari	27,0 %		Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	2,5 %
		27,7 %			2,6 %
	Transport xizmatlari	13,5 %		Yashash va ovqatlanish xizmatlari	2,3 %
		14,3 %			2,2 %
	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	5,9 %		Ijara xizmatlar	2,2 %
		5,9 %			3,2 %
	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	3,7 %		Shaxsiy xizmatlar	2,0 %
		4,1 %			2,0 %
	Boshqa xizmatlar	3,0 %		Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1,9 %
		2,5 %			1,7 %
	2021-y. yanvar- mart		Me'morchilik sohasidagi xizmatlar	0,9 %	
	2022-y. yanvar- mart			0,8 %	

Me'morchilik va tahlil sohasidagi xizmat ko'rsatish hajmlarining uncha katta bo'lmagan o'sishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 0,9 % ni tashkil etdi. Shuningdek, nisbatan yuqori bo'lmagan ulush sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar 1,9 %, shaxsiy xizmatlar 2,0 %, ijara xizmatlari hissi 2,2 % ga to'g'ri keldi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan  
bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, % da**



**Avtomobil transportida yuk aylanmasi va yo'lovchi aylanmasi xizmatlari**

2022 yil yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yuk aylanmasi 51,9 mln. tonna km ga yetdi.

Avtomobil transportida ko'rsatilgan yo'lovchi aylanmasi 578,5 mln. kishi km ni tashkil etdi.






**Savdo xizmatlari tarkibi**  
(2022-yil yanvar- mart oylarida)



Avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda



Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)



Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar


Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rt dan uch qismiga, aniqrog'i, 66,5 % ga to'g'ri keldi.

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 26,6 % ga yetdi.

Avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 6,9 % ni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-mart oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi 27,0 % ni tashkil etib, bu 307,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

**Hududlar kesimida savdo xizmatlarining ulushi**



- Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda
- Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)
- Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Hududlar bo'yicha taqqoslaganda, chakana savdo bo'yicha xizmatlarning eng katta ulushi Sardoba (82,4 %), Boyovut (80,9 %) tumanlariga va Yangiyer shahrida (79,5 %) to'g'ri keladi.

Bu ko'rsatkich Shirin shahrida nisbatan kichik, uning ulushi 28,2 % ni tashkil etdi. Biroq, Shirin shahrida ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi sezilarli darajada yuqori bo'ldi – 70,0 %. Sardoba tumanida esa eng kichik ulush 6,1 % qayd etildi.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda nisbatan yuqori ulush Oqoltin (15,3 %), Sardoba (11,5 %) va Guliston (10,6 %) tumanlarida qayd etildi.

Ushbu xizmatlarning eng kichik ulushi Shirin (1,8 %), Sayxunobod (3,2 %) tumanida va Guliston shahrida (4,3 %) a qayd qilindi.

Zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etish uchun shart-sharoitlar yaratishda, innovatsion bank texnologiyalarining joriy etilishi orqali chakana xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan "raqamli" banklar va ularning bo'linmalari faoliyatini tashkil etish, masofadan turib bank xizmatlarini takomillashtirish va to'lov tizimini yanada rivojlantirish, moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

### Moliyaviy xizmatlar (2022- yil yanvar- mart oylarida)

Moliyaviy xizmatlar hajmi 372,2 mlrd. so'mni–tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021-yilning yanvar- mart oylarida ularning hajmi 288,8 mlrd. so'm ga teng bo'lgan.



Moliyaviy xizmatlarining umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi 32,7 % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021-yilning yanvar- dekabr oylarida ularning ulushi 30,4 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmi 83,4 mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.




Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 128,6 % ni tashkil etdi.  
**Taqqoslash uchun:** 2021-yilning yanvar- mart oylarida ularning o'sish sur'ati 127,4 % ga yetgan.

### Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2022- yil yanvar- mart oylarida)

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 94,2% ni tashkil etadi.


Joriy davrda sug'urta xizmatlarining ulushi 3,0% oralig'ida qayd etildi.



Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning umumiy moliyaviy xizmatlar hajmidagi ulushi yuqori ko'rsatkichga ega emas va u 2,8 % ni tashkil etadi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatdiki, AKTning rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirish, strategik darajada boshqarish uchun keng imkoniyatlar ochadi.

### Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2022- yil yanvar- mart oylarida)



2022-yil yanvar-mart oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 67,2 mlrd. so'm darajasida belgilandi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati 119,7 % gaetdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmdagi ulushi 5,9 % ni tashkil etdi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi.

Fuqarolarni sifatli va arzon narxlardagi ta'lim bilan ta'minlash, jamiyat taraqqiyotini, uning kelajagini aniq belgilab beradigan vazifadir.

Bugungi kunda o'quv jarayonining sifati va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, darsliklar va yangi avlod metodik materiallari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

### Ta'lim sohasidagi xizmatlar (2022- yil yanvar- mart oylarida)

2022-yilning yanvar- mart oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 42,4 mlrd. so'mga etib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 3,7 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 98,3 % ni tashkil etdi.




***Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.***

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 103,2 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 26,0 mlrd. so'mga teng bo'lgan. Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi atigi 2,3 % ni tashkil etdi.

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar-** oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.

### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2022-yil yanvar- mart oylarida)



2022- yilning yanvar- mart oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi 26,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlar umumiy hajmida ularning ulushi 2,3 % ni tashkil qildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,2 % ni tashkil etdi.

### Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2022-yil yanvar- mart oylarida)



2022-yilning yanvar- mart oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning 21,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlar umumiy hajmida ularning ulushi 1,9 % ni tashkil qildi.

O'tgan yilning shu davr nisbatan o'sish sur'ati 110,6 % tashkil etdi.

### 3 BO'LIM. HUDUDLAR KESIMIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

Ijtimoiy, siyosiy va jamoatchilik muammolarini hududlarning iqtisodiy salohiyatini ko'tarmasdan, ularning barqaror rivojlanishisiz hal qilib bo'lmaydi. Hududiy siyosat maqsadlariga faqat iqtisodiy jihatdan samarali bo'lgan loyihalarni amalga oshirish orqali erishish mumkin.


Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

#### Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2022- yil yanvar- mart oylarida)

Xizmatlarning umumiy hajmida Guliston shahrining ulushi eng ahamiyatli bo'lib, 46,6 % ni tashkil etdi. Bu aholining real daromadlari boshqa tumanlardan ko'ra yuqoriroq ekanligi bilan izohlanadi.

Ma'lumot uchun: 2021- yilning yanvar- mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida Guliston shahrining ulushi 45,2 % ni tashkil etgan.


Shirin shahrining ulushi esa eng past ekanligi 2,5 % kuzatilgan.



Shuningdek, eng katta ulush Sirdaryo (13,5 %), Yangiyer shahri (7,7 %) Boyovut (5,7 %) tumanlarida qayd etildi.

Xizmatlar sohasining nisbatan past ko'rsatkichlari Shirin shahrida (2,4 %) va Oqoltin (2,9%), Sardoba (3,6 %) tumanlarida kuzatildi.

**Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining  
o'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da  
(2022-yil yanvar- mart oylarida)**



Ushbu davr mobaynida nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Guliston (116,7%), Yangiyer (112,6 %) shahrlarda va Oqoltin (113,2 %), Xovost (113,2 %) tumanlarida qayd etildi.

Nisbatan yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Mirzaobod (99,8 %), Sirdaryo (109,8 %) tumanlarida qayd etildi.

Xizmatlar sohasidagi aksariyat faoliyat turlarining o'ziga xos xususiyati - bu mahalliyashtirishning yuqori darajasi, ma'lum bir hududga (hudud, tuman, shahar va qishloq aholi punktlari) bog'liqligi hisoblanadi. Shu sababli, faoliyatning hajmi, joylashishi, faoliyat turlari va ko'lamlari, mulkchilik shakllari, korxonalar va xizmat ko'rsatish tashkilotlarining ish uslublari, ularning modernizatsiya qilishdagi roli va rivojlanish potentsiali mintaqa iqtisodiyotidagi innovatsion o'zgarishlarning ehtiyojlari, ustuvorliklari va strategiyasi bilan o'zaro bog'liq bo'lishi kerak.

Ko'rilayotgan davrda, resurslardan samarali foydalanish natijasida hududlar bo'yicha Guliston shahri ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmini o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan ushbu hududda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 99,2 mlrd. so'mga oshdi va 529,7 mlrd. so'mga yetdi.

**Hududlar kesimida ko'rsatilgan xizmatlar**  
(2022- yil yanvar- mart oylari uchun)

	<i>Jami</i>		<i>Aholi jon boshiga</i>	
	<i>mlrd. so'm</i>	<i>O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da</i>	<i>ming so'm</i>	<i>O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da</i>
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>1137,2</b>	<b>113,4</b>	<b>1291,1</b>	<b>111,0</b>
shaharlar				
Guliston	529,7	116,7	5629,3	113,5
Shirin	27,6	112,0	1446,6	110,8
Yangiyer	87,4	112,6	1924,9	109,9
tumanlar				
Boyovut	64,4	111,9	479,3	109,9
Guliston	44,5	111,6	583,8	109,0
Mirzaobod	51,4	99,8	665,2	97,3
Oqoltin	32,6	113,2	602,8	110,9
Sardoba	40,8	112,2	596,3	110,1
Sayxunobod	52,6	112,9	656,5	110,7
Sirdaryo	153,5	109,8	1157,4	107,8
Xovos	52,7	113,2	531,5	111,1

Shu bilan birga, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Guliston shahar (529,7 mlrd. so'm) va Sirdaryo (153,5 mlrd. so'm) tumanida qayd etildi.


Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda.



## Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

2022-yilning yanvar- mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1291,1 ming so'mga etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,0 % ni tashkil etdi.



### Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi, ming so'm (2022- yil yanvar- mart oylarida)




Ushbu xizmatlar hajmi ko'rsatkichi hududlar o'rtasida Guliston shahrida 5629,3 ming so'm Boyovut tumanida 479,3 ming so'mgacha oralig'ida bo'ldi.

Ushbu mintaqada aholi jon boshiga xizmatlar hajmi ko'rsatkichi nisbatan pastligi bu hududda aholi soninig yuqori ko'rsatkichlariga bog'liqligidir.


Taqqoslash uchun: Shirin shahrida o'rtacha doimiy aholi soni (2022- yilning yanvar-mart roylarida 19,1 ming kishini tashkil etdi) uncha ko'p bo'lmasada, biroq aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi nisbatan yuqori. Ko'rib chiqilayotgan davrda u 1446,6 ming so'mni tashkil etdi.

## 4 BO'LIM. XIZMATLAR SOHASIDA FAOLIYAT KO'RSATAYOTGAN KORXONA VA TASHKILOTLAR TO'G'RISIDA MA'LUMOT

2022- yil 1-aprel holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar ulushi (49,9 %) yuqoridir. Buning sababi ushbu faoliyatning yuqori daromadliligi va ketgan xarajatlarni tez qoplay olishida.

<p>Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarni ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 9,1 % ga tengdir. Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 5,4 % ga yetdi.</p>	<p>Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,0 % ni tashkil etdi. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,0 % ni tashkil qiladi.</p>
--	---

**Ma'lumot uchun:** 2020-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida 10034 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida savdo xizmatlari – 49,5 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 9,5 %, tashish va saqlash – 5,9 %, axborot va aloqa - 2,0 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 1,9 %, hamda boshqa turdagi xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar – 31,2 % ni tashkil etgan.

### Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Xizmatlar** iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiruvchi yoki tovarlar, xizmatlar yoki moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Xizmatning o'ziga xos xususiyati, xizmatni bajarish va uni iste'mol qilish davrining bir xil vaqtga to'g'ri kelishi hisoblanadi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar hajmida** ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i va aksizsiz hisoblangan to'lovlar hisobga olinadi.

Xizmatlar oldi-sotdi obyekt sifatida chiqqanda va iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to'laligicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda, xizmatlar bozor uchun mo'ljallanib ishlab chiqarilgan hisoblanadi.

**“Ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlar hajmi” statistik ko'rsatkichi** - ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatini o'lchovchi, iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ko'rsatilgan xizmatlar qiymatini aks ettiradi.

**Ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlar hajmi**, bu xizmatlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan va xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanmaydigan barcha xizmatlar ishlab chiqaruvchilari (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari qiymatidir.

**Iste'molchilar tomonidan xizmatlar uchun to'lovlar** naqd pul, shu jumladan plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

**Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar** (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so'mning belgilangan kursi bo'yicha qayta hisoblangan, shartnoma narxlari bo'yicha aniqlanadi.

**Elektron to'lovlar** – texnik vositalar, axborot texnologiyalari va axborot tizimlari xizmatlaridan foydalangan holda elektron to'lov hujjatlari orqali naqd pulsiz to'lovlarni amalga oshirish.

**Elektron pullar** – O'zbekiston Respublikasi hududida elektron pullar emitentlari tomonidan chiqariladigan pullar bo'lib, faqat O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida nomlanishi lozim.

**Faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarni tasniflash**, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichiga (keyingi o'rinlarda MST debataladi) muvofiq amalga oshiriladi.

**Bozor xizmatlari hajmi** MST bo'yicha tasniflangan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi (G-S seksiyalar) bo'yicha shakllantiriladi.

Amaldagi narxlarda aloqa va axborotlashtirish xizmatlarini ishlab chiqarish, mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

**Moliyaviy xizmatlar** Markaziy bank, tijorat banklari va boshqa moliya-kredit tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladi. Bu guruh xizmatlarga banklarning moliyaviy vositachiligi xizmatlari (moliyaviy lizing, kredit berish), shu jumladan, masofaviy bank xizmatlari (internet-banking, mobil-banking), investitsiya fondlari va boshqa moliyaviy tashkilotlarning moliyaviy vositachiligi, moliya bozorlari (fond va valyuta birjalari) faoliyatining yordamchi moliyaviy vositachilik xizmatlari va boshqa moliyaviy xizmatlar kiradi.

Amaldagi narxlarda moliyaviy xizmatlarning yalpi ishlab chiqarish hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida) hisobga olinadi. Chet el valyutasida kelib tushadigan foizli daromadlar hisobot davridagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tegishli kursi bo'yicha hisob-kitob qilinadi va so'mda aks ettiriladi.

**Transport xizmatlari** transportning barcha turlarida yuklarni va yo'lovchilarni tashish faoliyati, shuningdek, transportirovka qilishda yordamchi xizmat turlari, jumladan logistik xizmatlarni o'z ichiga oladi.

Amaldagi narxlarda transport xizmatlarining yalpi ishlab chiqarish hajmi transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi. Transport xizmatlari umumiy hajmida pochta va kuryerlik faoliyatining ishlab chiqarilgan yalpi hajmi hisobga olinadi.

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar** mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa yashash uchun joylar kabi qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash va oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarni o'z ichiga oladi.

**Savdo xizmatlari** ulgurji va chakana xizmatlarni birlashtirib, shuningdek, boshqa shaxs manfaatlar uchun tovarlarni oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalari yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan vositachilik xizmatlari hamda avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarini o'z ichiga oladi.

**Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni** ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari, ushbu faoliyat tashkilotning asosiy faoliyati yoki yo'qligidan qat'iy nazar aks ettiriladi.

**Ta'lim sohasidagi xizmatlar** oliy, o'rta maxsus, kasb-hunar, umumta'lim, maktabgacha ta'lim davlat muassasalarida tijorat asosida ta'lim olishni, shuningdek, radio va televideniye, Internet-kanallar va pochta aloqalarini qo'shgan holda har qanday darajadagi xususiy ta'lim olish va xohlagan kasbga o'qishni qamrab oladi.

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar** statsionar shifoxona muassasalari, poliklinikalar, stomatologiya muassasalari va tibbiy laboratoriyalar tomonidan pul asosida ko'rsatilgan kompleks xizmatlarni qamrab oladi.

**Ijara xizmatlari** bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

**Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar** hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar hamda ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

## VI. TRANSPORT

Mustaqillik yillarida transport va kommunikatsiya tizimini strategik rivojlantirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi. Respublikada transport mustaqilligi ta'minlandi va respublikaning barcha hududlarini bir-biri bilan bog'laydigan milliy tizim yaratildi.

**Yuk tashish.** 2022- yil yanvar–mart oylarida avtomobil transporti tomonidan 2,0 mln. tonna yuk tashilgan bo'lib, bu 2021- yilning yanvar– martiga nisbatan 94,5 foizni tashkil qildi. Shu bilan birga, yuk aylanmasi 51,9 mln.tn–km.ni tashkil qildi yoki 2021- yilning yanvar– martiga nisbatan 112,9 foizga o'sdi.

### Transport turlari bo'yicha yuk tashish va yuk aylanmasi

	2022- yil yanvar– mart	O'sish sur'ati, foiz hisobida
<b>Tashilgan yuklar, mln. tn.</b>	<b>2,0</b>	<b>94,5</b>
avtomobil transportida	2,0	94,5
<b>Yuk aylanmasi, mln. tn–km</b>	<b>51,9</b>	<b>112,9</b>
avtomobil transportida	51,9	112,9

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning avtomobil transportidagi yuk aylanmasi 2022- yil yanvar- martga nisbatan 101,4 foizni tashkil etib, 32,9 mln. tn-km. ni tashkil qildi.


Sirdaryo viloyatining tuman, shaharlarida tashilgan yuk bo'yicha yetakchi o'rinni Sayxunobod (316,6 ming tonna) tumani egalladi. Shu bilan birga, eng yuqori hajm Sirdaryo (296,8 ming tonna), Mirzaobod (203,8 ming tonna) tumanlari va Guliston (368,1tonna) shahrida kuzatildi.

### Sirdaryo viloyatining hududlari kesimida yuk tashish, ming tonna (2022- yilning yanvar– mart holatiga)

	ming tonna	2021- yil yanvar- martriga nisbatan foiz hisobida	Ulushi, foiz hisobida
<b>Jami</b>	<b>1978,7</b>	<b>94,5</b>	<b>100,0</b>
<i>shaharlar:</i>			
Guliston	368,1	106,5	18,6
Shirin	77,2	105,3	3,9
Yangiyer	148,4	104,2	7,5
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin	65,3	100,6	3,3
Boyovut	144,4	99,9	7,3
Sayxunobod	316,6	66,9	16,0
Guliston	136,5	97,2	6,9
Sardoba	51,4	98,1	2,6
Mirzaobod	203,8	104,6	10,3
Sirdaryo	296,8	104,2	15,0
Xovos	170,2	95,5	8,6

Ko'rsatilgan yuk tashishda eng kichik tonna quyidagi hududlar Sardoba (51,4 ming tonna), Oqoltin (65,3 ming tonna) tumanlarida va Shirin (77,2 ming tonna) shahri hissasiga to'g'ri keldi.

#### Tashilgan yukning umumiy hajmida hududlarning ulushi, %



Hududlar bo'yicha tashilgan yukning yuqori ulushi bo'yicha yetakchi o'rinni Guliston (jamiga nisbatan 18,6 %) shahri egalladi. Shu bilan birga, Sayxunobod (16,0 %), Sirdaryo (15,0 %) va Mirzaobod (10,3 %) tumanlarida kuzatildi.

Sirdaryo viloyatining yuk aylanmasi hajmida yetakchi o'rinni Guliston (10111,6 ming tonna-km) shahri egalladi. Shu bilan birga, eng yuqori ko'rsatkich Sirdaryo (7467,1 ming tonna-km), Mirzaobod (10889,5 ming tonna-km), Boyovut (4044,7 ming tonna-km) va Xovos (4407,7 ming tonna-km) tumanlarida kuzatildi.

#### Sirdaryo viloyatining tuman, shaharlari kesimida yuk aylanmasi ming tonna-km


(2022- yilning yanvar– martiga holatiga)

	ming tonna-km	2021-yil yanvar-martga nisbatan foiz hisobida	tuman, shaharlarning ulushi foiz hisobida
<b>Jami</b>	<b>51854,8</b>	<b>112,9</b>	<b>100</b>
<i>shaharlar:</i>			
Guliston	10111,6	85,0	19,5
Shirin	1555,6	135,4	3,0

	<i>ming tonna-km</i>	<i>2021-yil yanvar-martga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>tuman, shaharlarning ulushi foiz hisobida</i>
Yangiyer	2903,9	126,4	5,6
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin	1970,5	107,2	3,8
Boyovut	4044,7	125,8	7,8
Sayxunobod	3629,8	112,9	7,0
Guliston	3111,3	104,2	6,0
Sardoba	1763,1	101,0	3,4
Mirzaobod	10889,5	148,1	21,0
Sirdaryo	7467,1	113,7	14,4
Xovos	4407,7	119,9	8,5

Ko'rsatilgan yuk aylanmasidagi eng kichik tonna-km quyidagi hududlar Sardoba (1763,1ming tonna-km), Oqoltin (1970,5ming tonna-km) tumanlari va Shirin (1555,6 ming tonna-km) shahri hissasiga to'g'ri keldi.

**Tashilgan yuk aylanmasining umumiy hajmida hududlarning ulushi, %**



Hududlar bo'yicha yuk aylanmasining yuqori ulushi bo'yicha yetakchi o'rinni Mirzaobod (21,0 %) tuman egalladi. Shu bilan birga, Guliston (19,5 %) shahri, Sirdaryo (14,4 %), Boyovut (7,8 %) va Xovos (8,5 %) tumanlarida kuzatildi.

**Yo'lovchi tashish.** 2022- yil yanvar–martida barcha transport turlari tomonidan 21,2 mln. kishi tashilgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 103,0 foizni tashkil etdi. Yo'lovchi tashish aylanmasi esa ushbu davrda 102,9 foizni tashkil etib, 578,5 mln. yo'lovchi–km. ni tashkil qildi.



**Transport turlari bo'yicha  
yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi**

	<i>2022- yil yanvar– mart</i>	<i>Jamiga nisbatan, foiz hisobida</i>	<i>O'sish sur'ati, foiz hisobida</i>
<b>Tashilgan yo'lovchilar, mln. kishi</b>	<b>21,2</b>	<b>100,0</b>	<b>103,0</b>
avtomobil transportida	21,2	100,0	103,0
<b>Yo'lovchi aylanmasi, mln. yo'lovchi–km</b>	<b>578,5</b>	<b>100,0</b>	<b>102,9</b>
avtomobil transportida	578,5	100,0	102,9

Yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida yakka tartibdagi tadbirkorlar yo'lovchi aylanmasining ulushi 77,2 foizni tashkil etdi.

Sirdaryo viloyatining tuman, shaharlar bo'yicha tashilgan yo'lovchi bo'yicha yetakchi o'rinni Guliston (4654,8 ming kishi) shahri egalladi. Shu bilan birga, eng yuqori ko'rsatkich Sirdaryo (4591,2 ming kishi), Boyovut (2073,5 ming kishi), va Mirzaobod (2136,9ming kishi) tumanlarida kuzatildi.


**Sirdaryo viloyatining hududlari kesimida yo'lovchi tashish, ming kishi  
(2022- yilning yanvar– mart holatiga)**

	<i>ming kishi</i>	<i>2021- yil yanvar- marttga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>Ulushi, foiz hisobida</i>
<b>Jami</b>	<b>21157,8</b>	<b>103,0</b>	<b>100</b>
<i>shaharlar:</i>			
Guliston	4654,8	103,5	22,0
Shirin	444,3	103,0	2,1
Yangiyer	1713,8	104,3	8,1
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin	761,7	105,9	3,6
Boyovut	2073,5	100,9	9,8
Sayxunobod	1354,1	104,6	6,4
Guliston	1100,2	99,2	5,2

	<i>ming kishi</i>	<i>2021- yil yanvar-martga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>Ulushi, foiz hisobida</i>
Sardoba	846,3	103,0	4,0
Mirzaobod	2136,9	102,0	10,1
Sirdaryo	4591,2	102,5	21,7
Xovos	1481,0	106,0	7,0

Ko'rsatilgan yo'lovchi tashishda eng kichik ko'rsatkich quyidagi hududlar Shirin (444,3 ming kishi) shahri, Oqoltin (761,7 ming kishi) va Sardoba (846,3 ming kishi) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

#### **Tashilgan yo'lovchining umumiy hajmida hududlarning ulushi, %**



Xududlar bo'yicha tashilgan yukning yuqori ulushi bo'yicha yetakchi o'rinni Guliston (22,0 %) shahri egalladi. Shu bilan birga, Sirdaryo (21,7 %), Mirzaobod (10,1 %) va Boyovut (9,8 %) tumanlarida kuzatildi.


Sirdaryo viloyatining tuman, shaharlar bo'yicha yo'lovchi aylanmasida yetakchi o'rinni Guliston (120318,1 ming yo'lovchi-km) shahri egalladi. Shu bilan birga, eng yuqori ko'rsatkich bilan Sirdaryo (110484,6 ming yo'lovchi-km), Boyovut (61316,0 ming yo'lovchi-km) va Mirzaobod (56110,0 ming yo'lovchi-km) tumanlarida kuzatildi.

**Sirdaryo viloyatining tuman, shaharlar kesimida  
yo‘lovchi aylanmasi ming yo‘lovchi-km  
(2022-yilning yanvar–mart holatiga)**

	<i>ming yo‘lovchi-km</i>	<i>2021- yil yanvar- martiga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>Tuman, shaharlarning ulushi foiz hisobida</i>
<b>Jami xizmatlar</b>	<b>578453,2</b>	<b>102,9</b>	<b>100</b>
<i>shaharlar:</i>			
Guliston	120318,1	105,4	20,8
Shirin	11569,1	102,9	2,0
Yangiyer	46276,3	101,6	8,0
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin	25451,9	100,6	4,4
Boyovut	61316,0	103,9	10,6
Sayxunobod	38756,4	101,4	6,7
Guliston	36442,6	102,9	6,3
Sardoba	25451,9	102,9	4,4
Mirzaobod	56110,0	106,2	9,7
Sirdaryo	110484,6	100,3	19,1
Xovos	46276,3	101,6	8,0

Ko‘rsatilgan yo‘lovchi aylanmasidagi eng kichik yo‘lovchi–km quyidagi hududlar, Shirin (11569,1 ming yo‘lovchi–km) shahri, Oqoltin (25451,9 ming yo‘lovchi–km) va Sardoba (25451,9 ming yo‘lovchi–km) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.


### Yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida hududlarning ulushi, %



Xududlar bo'yicha yuk aylanmasining yuqori ulushi bo'yicha yetakchi o'rinni Guliston (20,8 %) shahri egalladi. Shu bilan birga, Sirdaryo (19,1 %), Boyovut (10,6 %), Mirzaobod (9,7 %) va Xovos (8,0 %) tumanlarida kuzatildi.

### Transport turlari bo'yicha yuk tashish, yuk aylanmasi, yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi

(2022- yil yanvar-mart oylarida)




## VII. ISTE'MOL BOZORI

2022 yil yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 929,5 mlrd. so'mni, yoki 2021 yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,5 % ni tashkil qildi.

Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasi 13,1 % ga kamayib, 65,8 mlrd. so'mni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 7,1 % ni tashkil qildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 5,1 % ga ko'payib, 863,7 mlrd. so'mga yetib, umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 92,9 % ni tashkil qildi.

### Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, % da (yanvar– mart oylari)



*Chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Guliston shahri hisobiga to'g'ri keldi va 40,3 % ni tashkil etdi, shu bilan birga, Sirdaryo tumani 16,8 %, Mirzaobod tumani 7,9 %, Yangiyer shahri 9,3 %, ni tashkil etgan bo'lsa, Shirin shahri 1,3 %, Xovos tumani 2,9 hamda Sardoba tumani 3,4 % va Sayhunobod tumani 4,0 % ulush bilan eng past ko'rsatkichni qayd etdi.*

2022 yilning yanvar-mart oylarida yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasi 13,1 % ga kamayidi. O'z navbatida, yirik korxonalarining chakana tovar aylanmasi Boyavut tumanida (2021 yilning shu davriga nisbatan 11,4 m.) yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 23,7 mlrd. soʻmni tashkil etdi va 7,6 % ga koʻpaydi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 2,5 % ni tashkil etdi. Umumiy ovqatlanish tashkilotlari savdo aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Guliston shahri hisobiga toʻgʻri kelib 49,4 % ni tashkil etgani holda, Yangiyer shahri 8,1 % ni, Sirdaryo tumani 14,6 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, Xovos tumani 0,8 % ni, Boyovut tumani 1,6 % ni qayd etdi.

**Chakana tovar aylanmasi  
(umumiy ovqatlanishni qoʻshgan holda)**

	<i>Jami</i>		<i>Aholi jon boshiga</i>	
	<i>mlrd. soʻm</i>	<i>2021 yil yanvar- martiga nisbatan % da</i>	<i>ming soʻm</i>	<i>2021 yil yanvar- martiga nisbatan % da</i>
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>929,5</b>	<b>103,5</b>	<b>1 055,3</b>	<b>101,4</b>
<i>shaharlar:</i>				
Guliston	374,2	109,1	3 976,7	106,1
Shirin	11,8	105,0	615,6	103,9
Yangiyer	86,3	104,9	1 899,8	102,4
<i>tumanlar:</i>				
Boyovut	45,2	143,9	336,8	141,3
Guliston	40,4	100,8	530,8	98,5
Mirzaobod	73,5	78,6	952,7	76,6
Oqoltin	46,0	106,6	851,0	104,4
Sardoba	31,4	84,1	459,7	82,5
Sayxunobod	37,4	89,6	466,3	87,8
Sirdaryo	156,4	104,1	1 179,6	102,2
Xovos	26,8	114,2	269,8	112,0


Chakana savdo tovar aylanmasi (ovqatlanish tashkilotlarini qoʻshgan holda) aholi jon boshiga 1,6 % ga koʻpayib, 1 055,3 ming soʻmni tashkil etdi (2021 yil yanvar-mart oylarida 913,2 ming soʻmni tashkil qilgan). Oʻrtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori koʻrsatkichlarni Guliston (3 976,7 ming soʻm), Yangiyer (1 899,8 ming soʻm) shaharlari va Sirdaryo (1 179,6 ming soʻm) tumanida kuzatildi. Shu bilan birga, eng past koʻrsatkichlarni esa Boyovut (336,8 ming soʻm), Guliston (530,8 ming soʻm) va Xovos (269,8 ming soʻm) tumanlarida qayd etildi.

**2022 yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga  
chakana savdo tovar aylanmasi, (ming so‘m)**



2022 yil yanvar–mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,5 foizni tashkil etib, 23,7 mlrd. so‘mga yetdi yoki o‘tgan yilning yanvar–mart oylariga nisbatan 7,6 foizga ko‘paydi. Bunda, jami savdo aylanmasining 92,9 foiz ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to‘g‘ri kelmoqda.

**Chakana savdo aylanmasida  
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, %**



2022 yilning yanvar-martida ulgurji savdo tovar aylanmasi 508,7 mlrd. soʻmni yoki 2021 yilning shu davriga nisbatan 102,9 % ni tashkil qildi. Yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasi 7,1 % ga koʻpaygan holda 36,2 mlrd. soʻmni tashkil etganini koʻrish mumkin.

Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulgurji savdo tovar aylanmasi 2,5 % ga koʻpayib, 472,4 mlrd. soʻmga yetdi va umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 92,9 % ni tashkil qildi.

### Ulgurji savdo tovar aylanmasi

	<i>mlrd. soʻm</i>	<i>jamiga nisbatan, % da</i>	<i>2021 yil yanvar-martiga nisbatan % da</i>
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>508,7</b>	<b>100,0</b>	<b>102,9</b>
<i>shaharlar:</i>			
Guliston	228,3	44,9	100,3
Shirin	1,0	0,2	97,2
Yangiyer	14,0	2,7	100,4
<i>tumanlar:</i>			
Boyovut	10,0	2,0	179,3
Guliston	8,5	1,7	102,7
Mirzaobod	34,7	6,8	97,6
Oqoltin	5,2	1,0	107,7
Sardoba	8,5	1,7	101,1
Sayxunobod	34,7	6,8	129,0
Sirdaryo	155,2	30,5	101,9
Xovos	8,8	1,7	89,0



### Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

(mlrd. so'm)

	<i>Jami</i>	<i>O'tgan yilning shu davriga nisbatan %da</i>	<i>Yirik korxonalar</i>	<i>O'tgan yilning shu davriga nisbatan %da</i>	<i>Kichik korxonalar</i>	<i>O'tgan yilning shu davriga nisbatan %da</i>
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>508,7</b>	<b>102,9</b>	<b>36,3</b>	<b>108,7</b>	<b>472,4</b>	<b>102,5</b>
<i>shaharlar:</i>						
Guliston	228,3	100,3	5,4	39,3	222,8	104,2
Shirin	1,0	97,2	-	-	1,0	97,5
Yangiyer	14,0	100,4	0,2	101,1	13,8	100,4
<i>tumanlar:</i>						
Boyovut	10,0	179,3	6,7	322,8	3,2	93,4
Guliston	8,5	102,7	2,3	108,7	6,2	100,7
Mirzaobod	34,7	97,6	2,3	100,3	32,4	97,5
Oqoltin	5,2	107,7	2,2	120,5	3,0	99,7
Sardoba	8,5	101,0	2,5	108,0	6,0	98,3
Sayxunobod	34,7	129,0	10,0	447,9	24,7	100,2
Sirdaryo	155,2	101,9	2,5	78,7	152,7	102,4
Xovos	8,8	89,0	2,2	65,2	6,6	101,8

## VIII. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT

### 1 BO'LIM. SIRDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Sirdaryo viloyati iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Viloyatning tashqi iqtisodiy fa'oliyati, hususan tashqi savdo soxasida amalga oshirilayotgan islohatlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2022- yilning yanvar-mart oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 203,1 mln. AQSH dollarini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 26,8 mln. AQSH dollariga yoki 15,2 % ga ko'paydi.


#### Sirdaryo viloyati tashqi savdo aylanmasi (yanvar-mart oylarida, mln. AQSH dollari)

	2021- yil	2022- yil	O'sish surati, % da	jamiga nisbatan, % da
<b>Tashqi savdo aylanmasi</b>	176,3	203,1	115,2 %	x
<b>Eksport</b> 	53,8	66,7	124,0 %	100,0
 <i>tovarlar</i>	53,5	66,0	123,5	98,9
 <i>xizmatlar</i>	0,3	0,7	202,9	1,1
<b>Import</b> 	122,5	136,4	111,3 %	100,0
 <i>tovarlar</i>	122,5	136,4	111,3 %	100,0
 <i>xizmatlar</i>	0,0	0,0	0,0	0,0
 <b>Saldo</b>	-68,7	-69,6	x	x

TSA da eksport xajmi 66,7 mln. AQSH dollariga (24,0 % ga ko'paydi) va import xajmi 136,4 mln. AQSH dollariga (11,3 % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida - 69,6 mln. AQSH dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.




Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasi o'laroq, 2022- yilning yanvar-mart oylarida, tashqi savdo aylanmasi MDH davlatlarining ulushi 53,3 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2021- yilga nisbatan ulushi 5,7 % ga kamaydi.









**Sirdaryo viloyatining tashqi savdo aylanmasida MDH mamlakatlari  
va boshqa xorijiy davlatlarning hajmlari dinamikasi**  
(yanvar-mart, mln. AQSh dollari, ulushi % da)



Boshqa xorijiy davlatlarning TSAsi 2022-yilning yanvar-mart oylarida 2021-yilning shu davriga nisbatan 5,7 % ga ko'paydi va jami TSAdagi ulushi 46,7 % ni tashkil etdi.

**Sirdaryo viloyatining yirik hamkor-davlatlar  
bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi**  
(yanvar-mart, mln. AQSh. dollari)


Davlatlar	2020- y.	2021- y.	2022- y.
 <b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>18,2</b>	<b>59,4</b>	<b>18,8</b>
Eksport	6,0	11,0	10,3
Import	12,2	48,4	8,5
Saldo	-6,2	-37,4	1,8
 <b>Qozog'iston</b>	<b>15,8</b>	<b>40,0</b>	<b>66,9</b>
Eksport	3,2	3,0	3,3
Import	12,6	37,0	63,6
Saldo	-9,4	-34,0	-60,3
**2022- yil 1- mart holatiga ko'ra hududlar kesimida korxonalar va tashkilotlarning kreditor qarzdorligi (mlrd. so'm)**



**2022- yil 1- mart holatiga ko‘ra, korxonalar va tashkilotlarning  
muddati o‘tgan debitor qarzdorligi holati**

	Jami, mln. so‘m	shundan:		ichki idoraviy qarzlarda ntashqari qarzdorlik
		xaridor va buyurtma- chilar	yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan avanslar	
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>17692,6</b>	<b>17529,2</b>	<b>163,4</b>	<b>17692,6</b>

*shaharlar:*

Guliston	11300,0	11300,0	-	11300,0
Shirin	-	-	-	-
Yangiyer	-	-	-	-

*tumanlar:*

Boyovut	-	-	-	-
Guliston	161,9	-	161,9	161,9
Mirzaobod	-	-	-	-
Oqoltin	-	-	-	-
Sardoba	-	-	-	-
Sayxunobod	-	-	-	-
Sirdaryo	6230,7	6229,2	1,5	6230,7
Xovos	-	-	-	-

Hududlar kesimida muddati o‘tgan debitor qarzdorlikning asosiy qismi Guliston shaharda – 11300,0 mln. so‘m, Sirdaryo tumani – 6230,7 mln. so‘m hamda Guliston tumanida 161,9 mln. so‘mni tashkil etgan.

**Muddati o‘tgan qarzdorlik -  
qonunda belgilangan muddatda  
to‘lanmagan, muddati o‘tgan  
qarzni umumiy summasi.**



**2022- yil 1-mart holatiga ko‘ra, korxonalar va tashkilotlarning  
muddati o‘tgan kreditor qarzdorligi holati**

	Jami, mln. so‘m	shundan:				
		yetkazib beruvchilar va pudrat- chilarga	bujetga to‘lovlar bo‘yicha	olingan avanslar	davlat maqsadli jamg‘arma- lariga to‘lovlar bo‘yicha qarz	mehnat- ga haq to‘lash bo‘yicha qarz
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>4256,3</b>	<b>4256,3</b>	-	-	-	<b>4256,3</b>
<i>shaharlar:</i>	-	-	-	-	-	-
Guliston	-	-	-	-	-	-
Shirin	-	-	-	-	-	-
Yangiyer	-	-	-	-	-	-
<i>tumanlar:</i>						
Boyovut	-	-	-	-	-	-
Guliston	-	-	-	-	-	-
Mirzaobod	-	-	-	-	-	-
Oqoltin	-	-	-	-	-	-
Sardoba	-	-	-	-	-	-
Sayxunobod	-	-	-	-	-	-
Sirdaryo	4256,3	4256,3	-	-	-	4256,3
Xovos	-	-	-	-	-	-

Hududlar kesimida muddati o‘tgan kreditor qarzdorlikning asosiy qismi Sirdaryo tumanida – 4256,3 mln. so‘mni tashkil etdi.

**2022- yil 1-mart holatiga, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
muddati o'tgan debitor qarzdorlikning tarkibi**

	Jami, mln. so'm	shundan:		ichki idoraviy qarzlardan tashqari qarzdorlik
		xaridor va buyurtmachilar	yetkazib beruvchilarga va pudratchilarga berilgan avanslar ichki idoraviy qarz	
<b>Jami</b>	<b>17692,6</b>	<b>17529,2</b>	<b>163,4</b>	<b>17692,6</b>
Qishloq, o'rmonvabaliqxo'jaligi	-	-	-	-
Ishlab chiqaradigan sanoat	6230,7	6229,2	1,5	6230,7
Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	11300,0	11300,0	-	11300,0
Qurilish	161,9	-	161,9	161,9
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	-	-	-	-


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha muddati o'tgan debitor qarzdorlikning eng ko'pi suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – 11300,0 mln. so'm, ishlab chiqaradigan sanoat– 6230,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

**2022- yil 1-mart holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
muddati o'tgan kreditor qarzdorlikning tarkibi**

	Jami, mln. so'm	shundan:					ichki idoraviy qarzlardan tashqari qarzdorlik
		yetkazib beruvchilar va pudratchilarga	olingan avanslar	bujetga to'lovlar bo'yicha	mehnat -ga haq to'lash bo'yicha	davlat maqsadli fondlariga to'lovlar	
<b>Jami</b>	<b>4256,3</b>	<b>4256,3</b>	-	-	-	-	<b>4256,3</b>
Ishlab chiqaradigan sanoat	4256,3	4256,3	-	-	-	-	4256,3
Suv bilan ta'min- lash; kanalizatsiya tizimi, chiqindi- larni yig'ish va utilizatsiya qilish	-	-	-	-	-	-	-
Qurilish	-	-	-	-	-	-	-
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	-	-	-	-	-	-	-




## 2022- yil 1-mart holatiga vazirlik va idoralarning debitor qarzdorligi (jamiga nisbatan % da)



Eng yuqori debitor qarzdorlik "Issiqlik elektr stansiyalari" AJ – 1216,6 mlrd. so‘m (viloyat bo‘yicha jami qarzdorlikdan 50,3 %), "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ – 308,9 mlrd. so‘m (12,8 %), "O‘zkimyosanoat" AJ – 142,3 mlrd. so‘m (5,9 %), "O‘zdonmaxsulot" AK – 130,2 mlrd. so‘m (5,4 %), "Hududgazta'minot" AJ – 72,8 mlrd. so‘m (3,0 %), "O‘zbekneftgaz" AJ – 29,2 mlrd. so‘m (1,2 %) "O'zbekiston temir yo'llari" AJ – 5,0 mlrd. so‘m (0,2 %) O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi – 29,2 mlrd. so‘m (1,2 %) va boshqalar 486,7 mlrd. so‘m (20,0 %) kuzatilmoqda.


### 2022- yil 1- mart holatiga alohida xo'jalik boshqaruv organlarining kreditor qarzdorligi, (mlrd. so‘m)



**Ma'lumot uchun: 2022- yil 1- mart holatiga jami kreditor qarzdorlik 1974,7 mlrd. so'm bo'lib, jami debitor qarzdorlikdan 446,1 mlrd. so'mga kamaygan.**

Eng yuqori kreditor qarzdorlik “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ – 654,8 mlrd. so'm (viloyat bo'yicha jami kreditor qarzdorlikdan 33,2 %), “Hududgazta'minot" AJ – 224,0 mlrd. so'm (11,3 %), “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ – 284,7 mlrd. so'm (14,4 %), "O'zkimyosanoat" AJ – 88,1 mlrd. so'm (4,5 % ) "O'zdonmahsulot" AJ – 18,9 mlrd. so'm (1,0 %) O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi 43,3 mlrd. so'm (2,2 % ) "O'zbekiston temir yo'llari" AJ 4,7 mlrd. so'm (0,2 % ) "O'zbekneftgaz" AJ 20,0 mlrd. so'm (1,0 % ) va boshqalar – 636,3 mlrd. so'm (32,2 %) ni tashkil etdi.

#### Alohida xo'jalik boshqaruv organlarining debitor va kreditor qarzdorligi (mlrd. so'm)



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Daromad (foyda) solig'i to'lagunga qadar foyda (zarar) – korxonada va tashkilotlarning barcha xo'jalik operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aks ettiradigan yakuniy moliyaviy natija. Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi (zarari), asosiy faoliyatning boshqa daromadlari, moliyaviy faoliyatning daromadlari va favqulodda foyda yig'indisidan davr xarajatlari, moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar va favqulodda xarajatlar chegirib tashlanadigan foydaning umumiy foydasini (zararini) ifodalaydi.

Debitorlik qarzlari – xaridorlar va buyurtmachilar, sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarining qarzlari, xodimlarga, mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo'naklar, budjet va davlat maqsadli jamg'armalariga soliqlar, yig'imlar va sug'urta bo'yicha bo'nak to'lovlari, muassislarning ustav fondidagi ulushlari bo'yicha qarzi, xodimlarning boshqa operatsiyalar bo'yicha qarzlari va boshqa debitorlik qarzlari o'z ichiga oladi.

Kreditorlik qarzlari – yetkazib beruvchilar va pudratchilar, sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarining qarzi, soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha muddati kechiktirilgan majburiyatlar, olingan avanslar, budjetga to'lovlar bo'yicha qarzi, sug'urta bo'yicha qarzi, davlat maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarzi, ta'sischi'larga qarzlari, mehnatga haq to'lash bo'yicha qarzlari va boshqa kreditorlik qarzlari o'z ichiga oladi.

Mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) – tayyor mahsulot, tovar, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarni sotishdan olingan daromadlar, shuningdek, sotilgan tovarlarning qaytishi, sotish va baholardan chegirmalar qo'shimcha qiymat solig'i hamda aksiz solig'ini qo'shgan holda.


Muddati o'tgan qarzlari – qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda so'ndirilmagan qarzlarning umumiy summasi.

Aktiv – ma'lum bir sanadagi tashkilot aktivlari tarkibi va qiymatini aks ettiruvchi buxgalteriya balansini (chap tomon).

Passiv – korxonada mablag'lari (majburiyatlari va kapitali) shakllanishining barcha manbalari yig'indisining (o'ng tomoni) qarama-qarshi qismi

## XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI


### Korxonalar va tashkilotlar soni (2022-yil 1-aprel holatiga, birlikda)



#### Yuridik shaxs:

yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkga ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-aprel holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




## Faoliyat ko'rsatayotgan tjorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2022- yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni

(Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar-mart oylarida, birlikda)



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni



(yanvar-mart oylarida, birlikda)






## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi (1- aprel holatiga ko‘ra)

**Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 14,2 foizga oshdi**




- Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu soxalarda xizmat ko‘rsatish
- O‘rmon xo‘jaligi
- Baliqchilik xo‘jaligi



## Sanoat yoʻnalishida faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (2022- yil 1- aprel holatiga koʻra, birlikda)

*Jami faoliyat koʻrsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 2,3 foizga oshdi*

■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar




2022- yil 1- aprel holatiga koʻra, sanoat korxonalarini va tashkilotlar soni 2 177 tani tashkil etib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 2,4 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalar va tashkilotlari koʻpayishining asosiy omili – (oʻtgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 102,8 % ga (jami sanoatdagi ulushi 92,9 %), togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 102,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 4,7 %) koʻpayishi, elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash – 19,1 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,8 %) va suv bilan taʼminlash, konditsiyalash tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 8,1 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,6 %) kamayishi kuzatildi.

## Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




### Kichik tadbirkorlik sub'ektlari




### Mikrofimlar




### Kichik korxonalar




### Ma'suliyati cheklangan jamiyati



### Oilaviy korxonalar




### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




### Xususiy korxonalar




## Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




### Kichik tadbirkorlik sub'ektlari




### Mikrofirmalar




### Kichik korxonalar




### Mas'uliyati cheklangan jamiyati




### Oilaviy korxonalar



### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




### Xususiy korxonalar




### Kichik tadbirkorlik subyektlari soni (2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



### Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



## Oilaviy korxonalar soni (1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra 410 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 18 taga yoki 104,6 foizga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 346 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 2 taga yoki 100,6 foizga oshganligini ko'rish mumkin.


2022- yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 19 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 7 taga yoki 26,9 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.

## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy – huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra 12 000 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 1 187 taga yoki 110,9 % ga oshganligini ko'rsatmoqda.


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 11 040 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 993 taga yoki 109,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 719 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 111 taga yoki 18,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.



## Sirdaryo viloyatidagi xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra 197 tani tashkil etib, ulardan 187 tasi yoki 94,9 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 6 taga yoki 3,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-mart oylarida 5 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar davlatlar kesimida soni

(2022 - yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

	2018- y	2019- y	2020- y	2021- y	2022- y
<b>Jami</b>	<b>83</b>	<b>117</b>	<b>168</b>	<b>184</b>	<b>187</b>
<i>shu jumladan:</i>					
qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	4	8	14	19	18
sanoat	60	82	105	117	116
qurilish	4	7	10	12	15
savdo	9	11	27	24	23
tashish va saqlash	3	4	6	3	5
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	-	1	1	1	-
axborot va aloqa	-	-	2	1	1
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	-	-	-	-
boshqa turlar	3	4	3	7	9

## Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)






## Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (2022 - yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>187</b>	<b>118</b>	<b>69</b>
Guliston sh.	44	25	19
Yangiyer sh.	20	10	10
Shirin sh.	5	5	-
Oqoltin	5	2	3
Boyovut	8	3	5
Sayxunobod	11	7	4
Guliston	7	4	3
Sardoba	10	7	3
Mirzaobod	16	9	7
Sirdaryo	55	44	11
Xovos	6	2	4

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonlarning asosiy qismi Sirdaryo tumanida 55 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 29,4 %), Guliston shahrida 44 ta (23,5 %), Yangiyer shahrida 20 ta (10,7 %), Sayxunobod tumanida 11 ta (5,9 %) hamda Mirzaobod tumanida 16 tani (8,5 %) tashkil etadi.

## Ro'yxatdan o'tgan korxonona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni (2022 - yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




2022 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonona va tashkilotlar xududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Guliston shahri (27,2 %), Yangiyer shahri (6,9 %), Shirin shahri (2,6 %), Sirdaryo tumani (13,9 %), Sayxunobod (7,7 %), Boyovut (8,0 %), Guliston (7,4 %), Mirzaobod (8,6 %), Oqoltin (6,1 %), Xovos (5,6 %), Sardoba (6,0 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(hududlar bo'yicha yanvar-mart oylarida, birlikda)

2022- yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Guliston shahri (18,5 %), Yangiyer shahri (4,5 %), Shirin shahri (2,0 %), Sirdaryo (12,2 %), Sayxunobod (6,8 %), Boyovut (6,6 %), Guliston (6,2 %), Mirzaobod (7,3 %), Oqoltin (14,1 %), Xovos (3,8 %), Sardoba (18,0 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni hududlar kesimida

(2022 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra, birlikda)



## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni hududlar kesimida


(2022 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra, birlikda)



2022 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularining ulushi, Guliston shahri (24,9 %), Yangiyer shahri (7,7 %), Shirin shahri (2,4 %), Sirdaryo (15,6 %), Sayxunobod (8,1 %), Boyovut (7,3 %), Guliston (6,7 %), Mirzaobod (9,0 %), Oqoltin (6,1 %), Xovos (5,6 %) va Sardoba (6,6 %) tumanlari hissalariга tegishli.

## Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi


(2022 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi % da)



2017-2021 yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi" ning uchunchi muhim yo'nalishi – xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlanishi hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

## Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni


(2022 - yil yanvar-mart oylarida, birlikda)




2022- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar, xududlar kesimida taqsimlangan Guliston shahri (15,7 %), Yangiyer shahri (10,5 %), Shirin shahri (5,3 %), Sirdaryo (21,1 %), Boyovut (21,1 %), Guliston (10,5 %), Mirzaobod (10,5 %) tumanlari ulushni qayt etadi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan % da



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reyestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashkari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Faoliyat ko'rsatmayotgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan yoki belgilangan muddatda ustav jamg'armalarini shakllantirmagan hamda tugatish jarayonida bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lgan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan**- ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Faoliyati tugatilgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan yuridik shaxslarning davlat reyestriga yuridik shaxsni tugatilganligi to'g'risidagi yozuv kiritilgandan so'ng bu haqda davlat statistika organlariga ma'lumot taqdim etilgan yuridik shaxslar.

**Yuridik shaxslarning faollik darajasi** – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Yuridik shaxslarning yangi tashkil etilganlik darajasi** – ma'lum bir davr oralig'ida tashkil etilgan yuridik shaxslarning jami faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

## XII. DEMOGRAFIK HOLAT




### 1 BO'LIM. SIRDARYO VILOYATI BO'YICHA DEMOGRAFIK HOLAT


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2022- yilning 1- aprel holatiga ko'ra Sirdaryo viloyati doimiy aholisi soni **883,1** ming kishini tashkil etib, yil boshidan 4,5 ming kishiga yoki 0,5 % ga o'sdi.

Shu bilan birga, shahar aholisi soni 377,2 ming kishini (jami aholi soniga nisbatan 42,7 %), qishloq aholisi soni 505,9 ming kishini (57,3 %) tashkil etdi.


Shahar va qishloq aholisining jami aholiga nisbatan ulushi, % da




Erkaklar va ayollarning jami aholiga nisbatan ulushi, % da




**Tirik tug'ilganlar soni**  
(yanvar-mart oylarida , ming kishi)




**Doimiy aholi soni**  
(1- aprel holatiga, ming kishi)




**Nikohlar soni**  
(yanvar-mart oylari, ming birlik)




**Ajirimlar soni**  
(yanvar-mart oylari, ming birlik)



**Ko'chib kelganlar**  
(yanvar-mart oylarida , ming kishi)



**Ko'chib ketganlar**  
(yanvar-mart oylarida , ming kishi)




**Sirdaryo viloyati aholisining tabiiy harakati**  
(yanvar-mart)

<i>Ko'rsatkichlar</i>	<i>Ming kishi</i>		<i>1000 aholiga nisbatan</i>	
	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>
Tug'ilganlar	4,6	5,4	21,4	25,0
Nikohlar soni, ming birlik	1,5	1,3	7,3	6,2
Ajrimlar soni, ming birlik	0,3	0,4	1,4	2,0

**Tug'ilish.** 2022- yilning yanvar-mart oylarida 5,4 ming nafar bola tug'ilganligi (faqat tirik tug'ilganlar) qayd etilgan bo'lib, 2021- yilning mos davriga (4,6 ming nafar bola) nisbatan 0,8 ming nafar bolaga ko'paydi. Tug'ilish koeffitsiyenti 25,0 promilleni tashkil etdi.


**Sirdaryo viloyati bo'yicha tirik tug'ilganlar soni**  
(2022- yil yanvar-mart)



**Oylar**

2022- yil yanvar-mart oylarida eng ko'p tug'ilganlar soni yanvar (1,9 ming kishi) oyida kuzatildi. Aksincha, eng kam tug'ilganlar fevral (1,7 ming kishi) oyida qayd etildi.


**Sirdaryo viloyati bo'yicha tirik tug'ilganlar soni**  
(yanvar-mart)





**Nikoh.** 2022- yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 1,3 ming nikoh qayd etilib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 6,2 promilleni tashkil etdi.


**Sirdaryo viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar soni**  
(2022- yil yanvar-mart)



2022- yil yanvar-mart oylari mobaynida eng ko'p tuzilgan nikohlar soni mart (0,5 ming birlik) oyida, eng kam nikohlar soni esa yanvar, fevral (0,4 ming birlik) oylarida kuzatildi.

**Nikohdan ajralishlar.** 2022 – yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 0,4 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 2,0 promilleni tashkil etdi.

**Sirdaryo viloyati bo'yicha nikohdan ajrashganlar soni**  
(2022- yil yanvar-mart)




2022- yil yanvar-mart oylarida eng ko'p nikohdan ajrashganlar soni yanvar (0,2 ming birlik) oyida, eng kam nikohdan ajrashganlar soni fevral va mart (0,1 ming birlik) oyida qayd etildi.

**Migratsiya.** Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 1,8 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 1,9 ming kishini tashkil etdi.


Migratsiya saldosi minus 0,1 ming kishini (2021 yilning mos davrida migratsiya saldosi minus 0,5 ming kishi) tashkil etgan.

## 2 BO'LIM. HUDUDLAR BO'YICHA DEMOGRAFIK HOLAT


### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2022- yil 1-aprel holatiga ko'ra, viloyat jami aholisiga nisbatan, % da)




### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o'sish sur'ati (2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, % da)



Hududlar bo'yicha 2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, o'tgan yilning shu davriga nisbatan aholi sonining eng past o'sishi Sayhunobod tumanida (102,2 %), Oqoltin tumanida (102,1 %), Xovos tumanida (102,0 %), Sirdaryo tumanida (102,0 %), Boyovut tumanida (101,9 %), Sardoba tumanida (101,9 %) hamda Shirin shahrida (101,1 %), kuzatildi.




### Hududlar kesimida tug'ilganlar koeffitsiyenti o'zgarishi (yanvar-aprel)




Tug'ilish darajasining o'sishi Guliston shaharda (19,9 promilledan 60,2 promillega), Yangiyer shaharda (21,1 promilledan 31,0 promillega), Sirdaryo tumanida (20,7 promilledan 23,5 promillega), Shirin shaharda (14,2 promilledan 18,7 promillega) kuzatildi.

Tug'ilish darajasining pasayishi Mirzaobod tumanida (24,5 promilledan 18,3 promillega), Oqoltin tumanida (23,3 promilledan 19,1 promillega), Guliston tumanida (21,6 promilledan 17,5 promillega va Boyovut tumanida (21,4 promilledan 18,8 promillega) qayd etildi.




**Hududlar kesimida tug‘ilish koeffitsiyenti  
(2022- yil yanvar-aprel)**




Hududlar bo‘yicha eng yuqori tug‘ilish koeffitsiyenti Guliston shaharda (60,2 promille), Yangiyer shaharda (31,0 promille), Sirdaryo tumanida (23,5 promille) va Sardoba tumanida (21,2 promille) kuzatildi.

Hududlar bo‘yicha eng kam tug‘ilish koeffitsiyenti Guliston tumanida (17,5 promille), Mirzaobod tumanida (18,3 promille), Shirin shahrida (18,7 promille) va Boyovut tumanida (18,8 promille) kuzatildi.




**Hududlar kesimida nikoh tuzganlar koeffitsiyenti  
(2022- yil yanvar-mart)**




Hududlar bo‘yicha 2022- yilning yanvar – mart oylarida eng yuqori nikoh koeffitsiyenti Guliston shahrida (12,0 promille), Shirin shahrida (7,9 promille), Yangiyer shahrida (7,5 promille) va Oqoltin tumanlarida (6,8 promille) kuzatildi.

Hududlar bo'yicha 2022- yilning yanvar–mart oylarida kamayishi Sayhunobod (4,5 promille), Guliston tumani (4,7 promille), Boyovut tumani (5,0 promille), Xovos (5,2 promille), tumanlarida kuzatildi.




### Hududlar kesimida nikohdan ajrashganlar koeffitsiyenti (2022 yil yanvar-mart)



Hududlar bo'yicha 2022- yilning yanvar–mart oylarida nikohdan ajrashganlarni eng yuqori koeffitsiyenti Guliston shaharda (3,4 promille), Shirin shaharda (3,4 promille) Yangiyer shaharda (3,1 promille), Oqoltin tumanida (2,2 promille) hamda Boyovut tumanida (2,0 promille) qayd etildi.

Hududlar bo'yicha 2022 yilning yanvar–mart oylarida eng kam nikohdan ajrashganlar koeffitsiyenti Mirzaobod tumanida (0,9 promille) Sardoba tumanida (1,2 promille) hamda Sayhunobod tumanlarida (1,4 promille) kuzatildi.



**Aholi migratsiyasi  
(yanvar-mart, kishi)**

	<i>Kelish</i>		<i>Ketish</i>		<i>Migratsiya saldos</i>	
	<i>2021- y.</i>	<i>2022- y.</i>	<i>2021- y.</i>	<i>2022- y.</i>	<i>2021- y.</i>	<i>2022- y.</i>
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>2545</b>	<b>1790</b>	<b>3004</b>	<b>1940</b>	<b>-459</b>	<b>-150</b>
shaharlar						
Guliston	533	405	446	298	87	107
Shirin	33	50	108	77	-75	-27
Yangiyer	306	194	223	133	83	61
tumanlar:						
Oqoltin	159	88	178	147	-19	-59
Boyovut	192	180	403	268	-211	-88
Sayhunobod	131	98	232	137	-101	-39
Guliston	298	198	190	172	108	26
Sardoba	172	84	283	161	-111	-77
Mirzaobod	250	155	259	163	-9	-8
Sirdaryo	205	165	354	157	-149	8
Xovos	266	173	328	227	-62	-54

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Boyovut (minus 88), Oqoltin (minus 59) va Xovos (minus 54) tumanlarida kuzatildi.

Migratsiya saldosining ijobiy darajasi Guliston (plyus 107) va Yangiyer (plyus 61) shaharlarida kuzatildi.

## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Doimiy aholi** – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

**Shahar aholisi** – shahar hududlarida, ya'ni meyoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

**Qishloq aholisi** – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda - qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

**Doimiy aholi sonini baholash** - oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

**Tug'ilish** – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

**1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**1000 ta aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**Go'daklar o'limi** – hayotining birinchi yilida sodir bo'lgan bolalar o'limi hodisasi.

**1000 tug'ilganga nisbatan (1 yoshgacha bolalar o'limi) go'daklar o'limi koeffitsiyenti** quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$\text{Koeff.} = (\text{Ut}_j / \text{T}_j + \text{Ut-1}_j / \text{T}_j-1) * 1000,$$

bu yerda  $\text{Ut}_j$  - joriy yilda tug'ilib, shu yili o'lgan 1 yoshgacha bolalar soni;

$\text{T}_j$  – joriy yilda tug'ilganlar soni;

$\text{Ut-1}_j$  – o'tgan yilda tug'ilib, joriy yilda o'lgan 1 yoshgacha bolalar soni;

$\text{T}_j-1$  – o'tgan yilda tug'ilganlar soni.

**O'lim sabablari** – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

**Nikoh** – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin

o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

**1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti** - hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish)** – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti** - hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi

**Ko'chib kelganlar soni** – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan ko'chib kelishni statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida aniqlanadi.

**Ko'chib ketganlar soni** – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududdan uning tashqarisiga ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatdan chiqarishda tuziladigan ko'chib ketishni statistik hisobga olish varaqalarini qayta ishlash natijasida aniqlanadi.

**Aholining migratsion o'sishi (farqi)** - hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtasidagi farqning absolyut miqdori.



### XIII. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI

2022- yil yanvar-mart oylarida Sirdaryo viloyatida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2849,9 ming so‘mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida ijtimoiy sug‘urta va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud) tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 118,3 % ga o‘shishi ta‘minlandi.



#### Yuridik shaxslarda xodimlar soni va ish haqi fondi (2022- yil yanvar-mart, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

	<i>Xodimlar soni, kishi</i>	<i>Ish haqi fondi, mlrd. so‘m</i>	<i>O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m</i>
<b>Viloyat bo‘yicha-jami</b>	<b>74149</b>	<b>633,9</b>	<b>2849,9</b>
<i>shu jumladan:</i>			
sanoat	12683	118,4	3112,5
qurilish	759	3,2	1403,0
savdo	658	5,5	2784,9
tashish va saqlash	1619	13,1	2696,9
yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	16	0,1	2083,3
axborot va aloqa	514	5,5	3577,3
bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik	1587	30,6	6433,6
ta‘lim	29933	224,4	2498,5
sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	14084	102,0	2415,0
san‘at, ko‘ngil ochish va dam olish	567	3,1	1779,9
boshqa faoliyat turlari	11729	114,8	3262,9

**Ish haqi.** 2022- yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda.

**Ta'lim sohasida** 29,9 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 40,4 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 224,4 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondi ulushi 36,2 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2498,5 ming so'mni tashkil etdi.



**Sanoat** iqtisodiy faoliyat turida 12,7 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 17,1 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 118,4 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 19,1 % ni) tashkil etgan. Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3112,5 ming so'mni tashkil etdi.



**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish** sohasida 14,1 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 19,0 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 102,0 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 16,5 % ni) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2415,0 ming so'mni tashkil etdi.



**Tashish va saqlash** iqtisodiy faoliyat turida 1,6 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 2,2 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 13,1 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 2,1 % ni) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2696,9 ming so'mni tashkil etdi.




**Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati iqtisodiy faoliyat** turida 1,6 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 2,2 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 30,6 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 4,9 % ni) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 6433,6 ming so'mni tashkil etdi.

**Sirdaryo viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(yanvar-mart, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik  
sub`ektlaridan tashqari, ming so'm)


	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>	<i>O'sish sur'ati, %</i>
<b>Viloyat bo'yicha:</b>	<b>2409,8</b>	<b>2849,9</b>	<b>118,3</b>
<i>shaharlar:</i>			
Guliston	2838,0	3303,3	116,4
Shirin	3328,5	4923,5	147,9
Yangiyer	2500,7	3201,1	128,0
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin	2009,0	2391,4	119,0
Boyovut	2178,8	2244,3	103,0
Sayxunobod	2475,1	2839,5	114,7
Guliston	1852,1	2198,4	118,7
Sardoba	2044,5	2338,3	114,4
Mirzaobod	1816,0	2234,3	123,0
Sirdaryo	2091,8	2372,1	113,4
Xovos	2427,5	2631,1	108,4

**Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(2022- yil yanvar-mart oylarida; viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan,% da)



Oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi koʻrsatkichini viloyat hududlari boʻyicha koʻradigan boʻlsak, yaʼni oʻrtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Shirin shahar 4923,5 ming soʻmni (2021- yilning mos davriga nisbatan oʻrtacha oylik ish haqi 147,9%), Guliston shahar 3303,3 ming soʻmni (116,4%) tashkil etgan boʻlsa, Yangiyer shahar 3201,1 ming soʻmni (128,0 %), Sayxunobod tumani 2839,5 ming soʻmni (114,7 %) tashkil etmoqda.

**Maʼlumot uchun:** Oʻzbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini toʻliq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq toʻlash yagona taʼrif setkasining birinchi razryadi (2021- yil 1- sentabr oyida 822,0 ming soʻmni tashkil etgan) boʻyicha belgilangan miqdordan oz boʻlishi mumkin emasligi koʻrsatib oʻtilgan.





**SIRDARYO VILOYATINING  
STATISTIK AXBOROTNOMASI  
2022 YIL  
YANVAR–MART**

**Nashrga mas'ul:**  
Statistika faoliyatini tashkil etish  
va yig'ma axborot–tahliliy ishlar bo'limi  
tel. (0–367)236–86–14

Buyurtma raqami №\_\_ \_\_\_\_.\_\_\_\_.22 y.      Tiraj \_\_ nusxa

*Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi  
Guliston sh., Birlashgan ko'chasi, 62–uy  
[www.sirstat.uz](http://www.sirstat.uz)*